

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

SATTOROVA ZILOLA ISMOILOVNA

**“DEVONU LUG‘ATI-T-TURK” ASARINING O‘ZBEK TILIDAGI
NASHRLARI VA ULARNING QIYOSIY-MATNIY TADQIQI**

10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

UO‘K: 801.82:811.512.133:930.2
KBK: 81.2-4/6:63.2(5Uzb)
S-24

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of the abstract of dissertation on Doctor of Philosophy (PhD)
on philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Sattorova Zilola Ismoilovna

“Devonu lug‘ati-t-turk” asarining o‘zbek tilidagi nashrlari va ularning
qiyosiy-matniy tadqiqi..... 3

Sattorova Zilola Ismoilovna

Uzbek editions of “Devonu lugati-t-turk” and their comparative-textual
research..... 29

Сатторова Зилола Исмоиловна

Узбекские издания “Девону лугати-т-тюрк” и их сравнительное-
текстологическое исследование..... 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 59

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

SATTOROVA ZILOLA ISMOILOVNA

**“DEVONU LUG‘ATI-T-TURK” ASARINING O‘ZBEK TILIDAGI
NASHRLARI VA ULARNING QIYOSIY-MATNIY TADQIQI**

10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fil1896 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.tsuos.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Omonov Qudratulla Sharipovich
filologiya fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Islomov Zohidjon Mahmudovich
filologiya fanlar doktori, professor

Shodmonov Nafas Namozovich
filologiya fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili,
adabiyoti va folklori instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil «24» fevral soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent, Mirobod tumani, Shahrizabz ko'chasi, 16-uy. Tel.: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (29 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent, Mirobod tumani, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2024- yil «2» fevral kuni tarqatildi.

(2024-yil «2» fevral dagi 29 raqamli reyestr bayonnomasi).



A.M.Mannonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
filol.f.d., professor

R.A.Alimuxamedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filol.f.d., dotsent

M.M.Is'hoqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi v.v.b. tar.f.d.,
professor

Mannonov

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon turkologiyasida muhtasham ilmiy, adabiy obida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asari butun islom olamiga turkiy tillar, turkiy xalqlarning madaniyati, urf-odati, turmush tarzi, xalq og'zaki ijodi haqida ma'lumot berishni ko'zlab yozilgani uchun umumturkiy xalqlarning mushtarak badiiy merosi sifatida e'tirof etiladi. Turkologiyada mazkur asarga doir tadqiqotlarning salmog'i keng bo'lib, ularning dastlabkisi matn tarixi va asar ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan.

O'tgan yuzyillarda dunyo turkologiyasida dastlab asar qo'lyozmasidan emas, balki uning tahrir qilingan bosma nusxasi asosidagi ilmiy nashrlari e'lon qilindi. "Devonu lug'ati-t-turk"dagi she'rlar birinchi bo'lib, 1927-yilda Abdurauf Fitrat tomonidan o'zbek tilida tabdil va talqin etilib, nashrga tayyorlandi. Solih Mutallibovning tarjimasi va talqinidagi o'zbek tilidagi ilk nashri (1960-1963- yillar) dunyo miqyosida uchinchi, Osiyo davlatlarida birinchi marta amalga oshirilgani bois ko'p yillar butun mintaqa uchun yagona tadqiqot manbai bo'lib xizmat qildi. Nashr jahon turkologlari tomonidan e'tirof etilgan, tavsiflangan, biroq matnshunoslik obyekti sifatida qo'lyozma bilan bevosita qiyosiy tadqiq etilmagan. Bugungi kunda qo'lyozmaning sifatli faksimile nusxalari tayyorlangani bois bosma nashr asosida qilingan tadqiqotlar, xususan, matnning ilk o'zbek tilidagi nashrlarida qo'lyozma bilan ma'lum tafovutlar borligi sezilmoqda.

Yangilanayotgan O'zbekistonda ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan e'tibor yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Xususan, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik tadqiqotlarini qo'lyozma manbalar asosida chuqur o'rganish yil sayin alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Shunday ishlar sirasida o'zbek matnshunosligida yangi natijalarga erishish uchun "Devonu lug'ati-t-turk" matnining qo'lyozma asosidagi yangi nashrlariga ehtiyoj yuzaga keldi. Bugungi kunda asarning o'zbek tilidagi nashri ikki marta qayta tahrirlanib, 2016-yilda Alibek Rustamov, Hamidulla Boltaboyev, Baxtiyor Isabekov hamda 2017-yilda Qosimjon Sodiqov tomonidan nashrga tayyorlandi. Matnshunoslik tadqiqoti o'zidan keyingi tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarixshunoslikka oid ilmiy ishlarga asos bo'lib, tadqiqotlarning sifati va ishonchliligini ta'minlaydi. Shu bois ushbu nashrlarni o'zaro qiyosiy-matniy tadqiq etish va original matn xususiyatlari ochiqdanganini belgilash mavzuning dolzarbligini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvaridagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60- son¹, 2022-yil 10-fevraldagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-126-son² qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ <https://lex.uz/docs/5841063>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 24-maydagi PQ-2995 son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.// Xalq so'zi, 2017-yil, 25-may.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. “Devonu lug‘ati-t-turk” qo‘lyozmasi topilib, ilmiy jamoatchilikka yetkazilgan kundan boshlab, jahon miqyosida keng o‘rganilgan. Matn tarixi va uning tekstologik xususiyatlariga oid aksar tadqiqotlar uning tarjimon va noshirlari tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, XX asrda *nemis, turk, o‘zbek, ingliz, uyg‘ur* va *qozoq* tillariga tarjima qilingan³. Mazkur tadqiqotlar 2000-yildan keyin ham jadallashib, *fors, xitoy, ozarbayjon, rus, qirg‘iz, turk* va *o‘zbek* tillarida qayta ishlangan va yangi nashrlari e‘lon qilindi⁴. O‘zbek tilidagi S.Mutallibov nashrining xususiyatlari, tarjimonning yondashuvlari ushbu xorijiy nashrlarning kirish qismida qisman o‘rganilgan.

A.Kononov, I.Stebleva, A.Rustamov, E.Fozilov, Q.Sodiqov, S.Rustamiy, E.Umarov, J.Xudoyberdiyev, Sh.Sultonaliyev, U.Omurbekova tadqiqotlarida boshqa xorijiy nashrlar bilan qiyoslaganlar va nashrdagi ayrim yutuq va kamchiliklarni ko‘rsatib o‘tganlar⁵.

³ Brockelmann C. Mitteltürkischer Wortschatz nach Mahmud al-Kaşgaris Divan Lughat at-Turk. Bibliotheca Orientalis Hungarica. – Budapest-Leipzig, – No. 1, 1928; *Atalay B.* Divanü Lûgat-it Türk Tercümesi. 3 cilt. – С. 1,2,3. – Ankara: Alâeddin Kırıl Basımevi, 1939, 1940, 1941; Туркий сўзлар девони (Девони луғотит турк). Таржимон ва нашрга тайёрловчи: *С.Муталлибов*. 3 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси, 1960, 1961, 1963; *Mahmud al-Kashgari.* Compendium of the Turkic Dialects (Diwan Lugat at-Turk), edited and translated with introduction and indices by Robert Dankoff, in collaboration with James Kelly. Cambridge, Mass. [In: Sources of Oriental Languages and Literatures, ed. Sinasi Tekin.] – Part I: 1982 – P. xi + 416. Part II: 1984 (Pp. iii + 381). Part III: 1985 (Pp. 337 + microfile); *Kashgari Maxmut.* Turkiy tillar divani – Divanü lûgat-it-türk. – Urumchi, 1981. – 687 b. 1983. II. – 535 b., 1984. III. – 612 b.; Қашқари Махмут. Түрік сөздігі. 3-том/Аударған А. Егеубай. – Алматы. 1997.

⁴ *Махмуд бин Ал Хусайн АлКашгарий.* Девону луғати-т-турк / Др.Хусайн Мухаммазода Сиддик. Ахтар нашриёти, Табриз-Эрон: Хижрий 1383.; Tu Tszüe Yuy Datsıdyan [“Devonu luğot-it-turk”] – Beyin: Millətlər nəşriyiti, 2002. – I cild. – 554 b., II cild – 378 b., III cild – 442 b.; *Kaşğari Mahmud.* Divanü lûgat-it-türk. Tərcümə edən və nəşrə hazırlayan Ramiz Əskər. – Bakı: Ozan, 2006, – I cild, – 512 s.; – II cild, – 400 s.; – III cild, – 400 s.; IV cild (indeks), – 752 s.; *Махмуд ал-Кашгарий.* Диван Луғат ат-Турк. Перевод, предисловие и комментарии З.-А.М.Ауэзовой. Индексы составлены Р.Эрмерсом. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005; *Махмуд ал-Кашгарий.* Диван луғат ат-турк (Свод тюркских слов) : в 3 т. / Пер. с араб. А.Р. Рустамова под ред. И.В.Кормушина, прим. И.В. Кормушина, Е.А. Поцелуевского, А.Р.Рустамова; – Москва: Вост. лит., 2010-том 1. – 461 с.; Махмуд Кашгари. Словарь тюркских языков / перевод на кырг. Т. Токоев, К. Кошмоков. – Бишкек, 2011. Т. I. – 906 б, II. 591б, III – 678 б.; *Kaşgarlı Mahmud.* Divānu Lugāti‘t-Türk (Giriş – Metin – Çeviri – Notlar – Dizin). Hazırlayanlar: Ahmet B.Ercilasun, Ziyat Akkoynli. – Ankara: TDK Yayınları. – 1120 s.; *Махмуд Кошгарий.* Девону луғоти-т-турк. 1-3 жилд. (Нашрга тайёрловчилар: А.Рустамов, Ҳ. Болтабоев, Б.Исабеков) – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2016.; *Махмуд Кошгарий.* “Девону луғати-т- турк”. Нашрга тайёрловчи: Содиқов Қ. – Тошкент: Фафур Ғуллом, 2007. – 482 б.

⁵ *Кононов А.* Изучение “Дивану луғат ит-турк” Махмуда Кашгарского в советском в СССР. Советская тюркология.1973. – №1. – С.4-5; *Рустамов А.* О переводе “Дивану луғат ит-турк” Махмуда Кашгари на русский язык. Советская тюркология. – Баку, 1972. – №1. – С.129-139.; *Стеблева И.* Развитие тюркских поэтических форм в XI веке. Москва. 1971. – С.111-279; *Фазылов Э.* Об изданиях и издателях «Дивана» Махмуда Кашгари. Советская тюркология. 1972. – №1. – Б.141-149.; *Содиқов Қ.* «Девону луғати-т-турк»да кечган *yelkin-elkin* сўзи ва унинг шеърлий узиндилардаги семантикаси // «Шарк таржимашунослиги: тарихи, ҳозирги кун ва келажак» мавзuidaги Республика илмий-амалий конференция тўплами. – Тошкент: ТошДШИ, 2014. – №2. – Б.24-28; *Рустамий С.* “Девону луғот-т-турк”даги лингвистик атамалар. – Т. 2006. – 92 б.; *Умаров Э.* Девонни янгидан нашр қилмок керак // Махмуд Кошгарийнинг “Девону луғотит турк” асари ва унинг туркий халқлар маданияти ҳамда жаҳон цивилизациясида тутган ўрни. Халқаро конференция материаллари. Самарқанд. 2002. – 98.; *Умаров Э.* “Девону луғотит турк”да чўзиқ унлиларнинг берилиши. Ўзбек тили ва адабиёти. 2010. – № 5. – Б.74-77.; *Султаналиев И.Ш.* Фонетико-лексические особенности перевода и чтения на тюркских и русском языках словаря Махмуда Кашгари «Дивану луғати-т тюрк» // Научный результат. Вопросы теоретической и прикладной лингвистики. – Т.3, – №2, 2017. – С.42-46.; *Xudoyberdiyev J.* Mahmud Koshg‘ariy hayoti va «Devonu lug‘otit turk» bo‘yicha yaratilgan asarlar ko‘rsatkichi. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – 160 b.; *Omurbekova U.* Divanu lugati-t-turk uzerine Turkiye‘de ve Yurt dıshında yapılmıř çalıřmalar. – Kastamonu, 2020. – s. 78-82.

N.Rahmon, B.To‘xliyev, H.Boltaboyev va S.Hasanov, R.Alimuxamedov o‘zbek tilidagi yangi nashrlar bilan chog‘ishtirilgan ilmiy ishlarini e‘lon qilganlar⁶. Shuningdek, Abdurauf Fitratning matn bo‘yicha tayyorlagan majmuasi turk olimi Y.Avji tomonidan B.Atalayning turkcha nashri bilan qiyosiy o‘rganilgan bo‘lsa, o‘zbek olimasi O.Hamrayevaning ilmiy ishida manbashunoslik tadqiqi amalga oshirilgan⁷. Biroq o‘zbek tilida e‘lon qilingan ilmiy nashrlar o‘zaro va qo‘lyozma bilan bevosita qiyosiy-matniy tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida amalga oshirilgan “Audiomanuskript.uz platformasini yaratish” (2022-2023), “IZ-2020102832 - “Yevropa fondlarida saqlanayotgan, O‘zbekistonda mavjud bo‘lmagan turkiy qo‘lyozmalarning ma‘lumotlar bazasini va “Yevroturcologica.uz” elektron platformasini yaratish” (2021-2023) nomli ilmiy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi “Devonu lug‘ati-t-turk” asarining o‘zbek tilidagi nashrlarini o‘zaro qiyosiy-matniy baholash, matniy tafovutlarni aniqlash, qo‘lyozma bilan chog‘ishtirish hamda nashrlarning qo‘lyozma xususiyatlarini aks ettirishini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

qo‘lyozmaning matniy xususiyatlariga oid bahsli masalalariga munosabat bildirish;

“Devonu lug‘ati-t-turk” asarining o‘zbek tilidagi nashrlarining statistik tahlilini amalga oshirish;

o‘zbek tilidagi nashrlarda muqaddima qismiga oid matniy tafovutlarni qo‘lyozma bilan chog‘ishtirib, matnning xususiyatlari ochiqqlanganini belgilash;

nashrlarda turkiy matnlarning yozilishi va o‘qilishiga oid matniy-ma‘naviy farqlarning paydo bo‘lishiga ta‘sir etgan omillarni oydinlashtirish, tasniflab tahlil qilish;

nashrlarda turkiy she‘r va maqollarni qiyosiy-matniy tadqiq etish, Abdurauf Fitrat tadqiqoti va qo‘lyozma bilan qiyoslab, original matn xususiyatlari ochiqqlanganini belgilash.

Tadqiqotning obyekti “Devonu lug‘ati-t-turk” asarining 1960-1963, 2016, 2017-yillarda e‘lon qilingan o‘zbek tilidagi nashrlari, 1927- yilda nashr qilingan Abdurauf Fitratning majmuasi va asar qo‘lyozmasining 2008- yilda tayyorlangan faksimile nusxasi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti sifatida “Devonu lug‘ati-t-turk” asarining o‘zbek tilidagi nashrlarini qiyosiy-matniy tadqiq etish belgilangan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot uchun to‘plangan materiallarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, matniy qiyoslash, tavsiflash, tasniflash, chog‘ishtirish, semantik va statistik tahlil asosida o‘rganildi.

⁶ *Насимхон Раҳмон*. Туркологияда дадил кадам. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”. 27 сентябрь, 2017 йил. https://www.researchgate.net/publication/337812439_Turkologiada_dadil_kadam; *Тўхлиев Б.* “Девону луғати-т-турк”ка оид айрим мулоҳазалар // *Turkologiya*. – Т: TDSHU, – № 3. 2021. – Б.26-36.; *Ҳасанов С., Болтабоев Ҳ.* “Девону луғот-т-турк”нинг янги нашрини тайёрлаш принциплари // “Девону луғоти-т-турк” – туркий халқларнинг ноёб ёзма ёдгорлиги” халқаро илмий анжуман материаллари. – Т., 2018. – Б.7.; *Алимухамедов Р.* Проф. Қ.Содиқов томонидан тайёрланган “Девону луғати-т-турк” асарининг янги нашри // “Девону луғоти-т-турк” – туркий халқларнинг ноёб ёзма ёдгорлиги” мавзуидаги халқаро илмий анжуман материаллари. – Т., 2018. – Б.122.

⁷ *Avci Y.* Türk Edebiyatının en eski örnekleri. Kesit Yayınları. – Istanbul. 2014. – S.9-12.; *Ҳамроева О.* XX аср бошлари ўзбек матншунослиги тараққиётида Фитрат мажмуаларининг ўрни: Фил. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD)... дис. – Т., 2018. – 173 б.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Abdurauf Fitratning “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasida “Devonu lug‘ati-t-turk”dan olingan she‘riy parchalar nashri uchun asarning bosma nusxasi asos bo‘lganiga qaramasdan she‘riy matnlarning qo‘lyozmaga mos shakli to‘g‘ri tiklangani dalillangan;

S.Mutallibov nashrida oltita so‘z-maqola hamda qator diniy tushuncha va kalimalar tushirib qoldirilgani, shuningdek, matnning o‘qilishi va talqini bilan bog‘liq xatolar keyingi tadqiqotlarda ham takrorlangani ochiqdangan;

“Devonu lug‘ati-t-turk”ning H.Boltaboyev boshchiligida tayyorlangan nashri S.Mutallibov yondashuvlari asosida ekanligi, matnning tiklangan o‘rinlari A.Rustamovning ruscha nashriga asoslanilgani, Q.Sodiqov nashrida esa o‘zigacha bo‘lgan nashrlarda tushirib qoldirilgan qo‘lyozma buyurtmachisining so‘zboshisi hamda sakkizta so‘z-maqola tiklangani isbotlangan;

o‘zbek tilidagi nashrlarda aniqlangan 650 ga yaqin tafovutlar qo‘lyozma bilan solishtirilib tasniflangani, farqlarning asosiy qismi turkiy matn bilan bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan hamda qo‘lyozmada keltirilgan turkiy so‘zlar talqinida S.Mutallibov arabcha matnga, Q.Sodiqov esa turkiy matnga asoslanganligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Devonu lug‘ati-t-turk” asarining o‘zbek tilidagi nashrlari o‘zaro qiyoslanib, matniy tafovutlar aniqlangan va qo‘lyozma bilan chog‘ishtirilgan, natijada tafovutlarning eng ko‘lamlisi turkiy matnlarning o‘qilishiga va qisman talqinga oid ekani aniqlangan; so‘zlar, tovushlar, talqin, turkiy she‘rlar va maqollar doirasida besh guruhga ajratilib tahlil qilingan, ayrim farqli o‘rinlar xorijiy nashrlar bilan ham qiyoslangan;

o‘zbekcha nashrlardagi so‘z-maqola vazifasida kelgan so‘zlar statistikasi hisoblangan va natijalarning har xilligiga ta‘sir etgan omillar ma‘lum qilingan, o‘zbek tilidagi nashrlar, shuningdek Abdurauf Fitrat majmuasidagi turkiy she‘rlar qo‘lyozma bilan qiyoslanib, mualliflarning matn xususiyatlarini nashrlarda aks ettirish mahorati ochiqdangan; aniqlangan 650 ga yaqin matniy tafovutlar mavzuiy guruhlariga ajratilib, tadqiqot so‘nggidagi ilovalarda ko‘rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi dissertatsiya matnshunoslik va adabiy manbashunoslik tadqiqotlarining metodologiyasi va usullari asosida bajarilganligi, sohaga oid 200 dan ziyod adabiyotlardan foydalanilganligi, xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning tegishli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan ta‘minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “Devonu lug‘ati-t-turk” asarining o‘zbek tilidagi nashrlaridagi matniy-ma‘naviy farqlar bevosita qo‘lyozma bilan qiyoslanib tasniflanishi, ilk bor Abdurauf Fitratning majmuasiga kiritilgan she‘rlar asl manba bilan chog‘ishtirilgani, qo‘lyozmadagi noaniq o‘rinlar nashrga tayyorlovchilarning matn bilan ishlash mahoratlari bilan tiklanganining asoslanishi, tadqiqot natijasida olingan xulosalar turkiy tillarni tadqiq etishni yanada boyitishga ilmiy-nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kelgusida “Devonu lug‘ati-t-turk”ka oid tilshunoslik, adabiyotshunoslik, matnshunoslik tadqiqotlari, matnning yangi nashrlari,

manbashunoslik va matnshunoslik bo'yicha qo'llanmalar, o'quv adabiyotlarini tayyorlashda manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Devonu lug‘ati-t-turk” asarining o‘zbek tilidagi nashrlari va ularning qiyosiy-matniy tadqiqi” mavzusi yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida:

“Devonu lug‘ati-t-turk” asarining qo‘lyozmasi, uning matniy xususiyatlari, asarning o‘zbek tilidagi nashrlari, turkologiyada asar talqinini mukammallashtirishga bo‘lgan urinishlar bilan bog‘liq tahlillardan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan IZ-2020102832 raqamli “Evropa fondlarida saqlanayotgan, O‘zbekistonda mavjud bo‘lmagan Turkiy qo‘lyozmalarining ma‘lumotlar bazasini va “Evroturcologica.uz” elektron platformasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2023-yil 15- noyabrdagi 02-04/2217- son ma‘lumotnomasi). Natijada “Devonu lug‘ati-t-turk”ning Turkiyada saqlanayotgan yagona nusxasi 1266-yilda damashqlik Muhammad ibn Abu Bakr Damashqiy tomonidan Mahmud Koshg‘ariyning o‘z qo‘li bilan yozgan nusxadan ko‘chirilganligi to‘g‘risidagi qarashlarni asoslashga xizmat qilgan;

“Devonu lug‘ati-t-turk” asarining o‘zbek tilidagi ilk nashrlari va keyingi yillardagi qayta nashrlarining qiyosiy-matniy tadqiqi, matniy farqlarning qo‘lyozmada qanday shaklda kelgani bilan bog‘liq xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 2023-yil birinchi yarim yillik ish rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 2023-yil 4-avgustdagi 1 13-21-2157-son ma‘lumotnomasi). Tadqiqot asosida tayyorlangan ish rejasi yangi ma‘lumotlar bilan boyitilgan hamda targ‘ibot va tashviqot ishlarida “Devonu lug‘ati-t-turk”ning o‘zbekcha nashrlari haqidagi tasavvurlarni boyitishda nazariy-metodologik manba vazifasini bajargan;

“Devonu lug‘ati-t-turk” asarining bugungacha o‘zbek tilida tayyorlangan nashrlari tadqiqiga oid tahlillardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Taqdimot” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2023-yil, 28-noyabrdagi 06-28-1778-son ma‘lumotnomasi). Ko‘rsatuvda o‘zbek koshg‘ariyshunosligi bevosita Abdurauf Fitratdan boshlangani, ilk o‘zbekcha nashrlar asarining qo‘lyozmasidan emas, balki tahrir qilingan bosma nusxa asosida amalga oshirilgani va so‘nggi yillarda asar ikki marta qayta nashrga tayyorlangani, mazkur nashrlar o‘zaro va qo‘lyozma bilan solishtirilib matniy tafovutlar aniqlangani ilmiy asosda yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi konferensiyada aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (ulardan 4 tasi respublika va 4 tasi xorij jurnallarida) nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 150 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **I bobi “Devonu lugʻati-t-turk”:** Turkologiyada asar talqinini mukammallashtirishga boʻlgan urinishlar boʻlib, ikki tuzilmasida asarning manbashunoslik va matnshunoslik tahlili, Abdurauf Fitrat tadqiqotlari yoritilgan.

X asrda xalifalar saroyida turklarning nufuzi baland boʻlgani turk tilini oʻrganishga boʻlgan maʼnaviy, ilmiy ehtiyojni yuzaga keltirgan va Mahmud Koshgʻariyning turkiy tillar grammatikasi boʻyicha yuqori mahorat hamda tajribaga egaligi ⁸ “Devonu lugʻati-t-turk” (keyingi oʻrinlarda DLT) uning tomonidan yaratilishiga asos boʻlgan.

Mahmud Koshgʻariy shaxsi haqida matnning oʻzidagina ishora qilingan ayrim oʻrinlardan boshqa maʼlumotlar mavjud emas. Biz uning hukmdor sulola vakili ekanligi haqidagi qarashlarga tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan yangi maʼlumot bilan qoʻshilamiz: “*Kök topulğan – bir qushning oti. Aytishlaricha, bu qushning ikki qanotida poʻlat boʻladi va u qanoti bilan oʻzini togʻga urib, bir tomondan boshqa tomonga teshib oʻtadi. Bu soʻzni menga xizmat qilib yurgan bir kishi aytgan.*”(MK.259/4-7)⁹.

DLTning yagona nusxasi Mahmud Koshgʻariyning oʻzi bitgan nusxadan ikki yuz yil oʻtgach, 664-yil, shavvol oyining 27- da (1266-yil 1-avgust) sovalik, soʻng damashqlik Muhammad ibn Abu Bakr Damashqiy nomli kotib tomonidan koʻchirilgan. XIV asrga kelib, Muhammad Xatib Darayyaga oʻtgan (D-K.8)¹⁰. Misrni bosib olgan turk sultoni Yavuz Sulon Selim barcha oʻljalarni suv yoʻli orqali Topqopi saroyiga yuborgan va DLT usmonlilar saroyiga kelib qolgan. XX asr boshida Ali Amiriy nomli kitob ixlosmandi ajdodlari uzoq vaqtlar mobaynida saroyda posholik qilgan Nazif poshoning qarindoshi boʻlgan bir ayoldan qoʻlyozmani sotib olgan¹¹ va shu tariqa asar ilk bor ilmiy jamoatchilikka eʼlon qilingan. Hozirda Millat kutubxonasi 4189 raqam bilan saqlanadi.

Matnda asosan qora, qizil siyoh ishlatilgan. Kuzatishimizcha, faksimilening 25-200 sahifalarida och jigarrang siyohda oʻzgartirishlar kiritilgan, yaʼni *zamma*, *fatha*, *kasra*, *sukun*, *taʼdid*, *tanvin* va baʼzi harflarning nuqtalari qoʻyib chiqilgan. 30/11- satr, arabcha matnda جز deb yozilgan soʻzning oxirida *tanvin fatha* bilan toʻgʻirlangan va sukun qoʻyilgan. Bir oʻrinda turkiy soʻzga ham *tanvin fatha*

⁸ (..biz bularni *Javahiru-n-nahvi fi lugʻati-t-turki*” [“Turk tillarining nahviga oid gavharlar”] otli asarimizda berdik” (MK.18)

⁹ *Mahmud bin al-Husayn bin Muhammad al-Kashgʻari*. Kitâbu dîvânu lugʻâtiʼ-*t-türk*. Tipkibasim-Türkçe Sözcükler, Özel Adlar Dizini. – Istanbul: Yayina hazirlayan Şaban Kurt. 2008. – 638 s. (Tadqiqot davomida qoʻlyozmaning mazkur faksimile nusxasidan foydalanildi).

¹⁰ *Mahmud al-Kashgari*. Compendium of the Turkic Dialects (Diwan Lugat at-Turk), edited and translated with introduction and indices by Robert Dankoff, in collaboration with James Kelly. – Cambridge, Mass. / In: Sources of Oriental Languages and Literatures, ed. Sinasi Tekin. Part I: 1982 – 416 p. – Part II: 1984. – 381 p. – Part III: 1985. – P.337.

¹¹ Chichekli Ali. *Kashgarli Mahmut*. DIVAN-U LUGAT-IT TURK. May yayinlari genel kultur kitapları 2. 1970. – S.2

qo'yilganiga duch keldik. Ba'zi olimlarning tahrir qilgan kishi yoki kotib turkiy tilni arab tilchalik bilmagan deb baho berishlari,¹² balki, shu vajdandir. 77/16-17- qatorida *من أندا أشنو كليم* *men anda aşnu keldim* birikmasidagi ikkinchi so'zning oxiriga *tanvin fatha* yozilgan. Bu o'rinda nun ن yozsa ham shu ma'no chiqishi, *andan* o'qilishi mumkin edi. Biroq, matn ko'rinishini iloji boricha buzmaslikka, kamchiliklarni sezdirmasdan tuzatishga harakat qilingan ko'rinadi. Shuningdek, 32-sahifada 6 ta ك ning ustiga uchta nuqta qo'yilib, turkcha so'zlar tarkibidagi jarangsiz ك [k]ning jarangli ك [g] talaffuz qilinishi ta'minlangan.

Qo'lyozma bitgach, uni keyinchalik boshqa bir kishi tuzatib chiqqan ko'rinadi. Tadqiqotchilar kotib abu Bakr Damashqiy va Xatib Darayya bilan birga 15 kishining qalami borligini taxmin qilishgan (D-K,15). Bizningcha ham boshqa qo'l izlari bo'lishi mumkin. Chunki, qizil siyohdagi ba'zi sarlavha (8/14-qator) va arabcha o'rindlarda to'q qora rang bilan harakatlar qo'yilgan. Bu qatorida qizil sarlavha ustida kotib qalamidan farqli to'q qora siyohda ham qalin va yotiqroq zamma qo'yilgan. Bu jigarrang siyoh egasining "zamma"siga ham o'xshamaydi. 3,9,10,12-sahifalar hoshiyalaridagi yozuvlar ham kotibning dastxatidan farqli — biroz o'ngga qiyalangan. Biroq olimlarning matnda 15 ta qalam egasining izi bor deyishi biroz bahsli masaladir. Sababi hajman katta asarni yozishda siyohning tugashi va almashinishi tabiiy. Bizningcha, qo'lyozmani ustidan tahrir qilgan shaxslar yo boshqa nusxasiga qarab tuzatmoqchi bo'lgan yoki o'quvchiga tushunarliroq yana bir variantini chiqarmoqchi bo'lgan *انى بَشْرًا قَفْتِي* *ani bašra qaqtī* jumlasida *bašra* so'zidagi *-ra* jo'nalish kelishigi ustidan chizilib, *-ka* shaklga o'zgartirishga, ya'ni *bašga qaqqar* birikmasi yasashga urinilgan, chunki eski turkiy tilda qo'shimchaning qadimgi turkiy tildagi *-ra* shakli faol emas edi — MK.412/12).

Sh.Kurtning qayd etishicha, qo'lyozmaning 637- sahifasida *إِنَّجْ inänäč* so'zi bor va u DLTning birona nashrida uchramaydi¹³. Biz bu fikrga to'laligicha qo'shila olmaymiz. Chunki bu yerda *ishonarli, e'tiqod* ma'nosida izohlangan birlikdagi ingichka [ä] unlisi hisobga olinmasdan *إِنَّجْ inänč* o'qilgan. K.Rifatni ham tanqid qilish noo'rin bo'lsa kerak. *Inänč* so'zi turkiy tillarda faol bo'lgan. Shuningdek, جلي g'unnalilar bobida barcha so'zlar نج bilan yakunlangan. Ko'kturk bitiglarida bu ikki tovush birgalikda bitta maxsus harf bilan ifodalangan. Qo'lyozmada bu so'zning yozilishi Sh.Kurt keltirganidek, 637- sahifaning 14- qatorida *إِنَّجْ inänäč* yozilgan, ya'ni ikkinchi ن nun *fatha* bilan harakatlangan. Davomidan *inänč beg* birikmasi so'zni yanada aniqlashtirish uchun kiritilgan. Lekin bu safar "o'sha *fatha*" qo'yilmagan. Bu birikma shu holatda matnda takror kelgan. Qolaversa, "Qutadg'u bilig" ning arab yozuvli Namangan nusxasida o'sha davrlarda *inänč beg* nomli maxsus unvon bo'lgani qayd qilingan¹⁴. Demak, bu o'rinda kotib tomonidan qo'yilgan *fatha* harakatini beixtiyor qo'yib yuborilgan deb xulosa qilish mumkin.

Matnning ilk sahifasidagi 15 qatorli so'zboshi haqida ikki xil qarash shakllangan: 1. *K.Rifat so'zboshi Ahmad Xatib Darayya tomonidan 1400-1401-yillarda yozilgan deb xulosa qilgan*. Chunki sahifa yuqorisiga ushbu shaxsning nomi, imzosi va shu sana yozilgan edi. 2. *So'zboshi kotib abu Bakr Saviy Damashqiy tomonidan*

¹² Рустамий С. "Девону луғоти-турк"даги лингвистик атамалар. – Т., 2006. – Б.25

¹³ Şaban Kurt. Özel Adlar Dizini. – Istanbul, 2008. – S.17.

¹⁴ Содиқов Қ. "Қутадғу билиг" сўзлиги [Матн]. – Т., 2020. – Б.108.

1266-yilda yozilgan. Denköff-Kelli asar sarlavhasidagi *Allah* va imzoning *bi-l-qahira* soʻzidagi *ha* harfining ikki xil yozilgani bilan bu fikrga keladi. Bizningcha, ikkinchi mulohaza asosli. Faksimilega koʻra, yozuv xususiyatlari, harflarning qayrilish burchaklari, 15- satrdagi qizil siyohda nuqtachali doira va uchta qizil nuqta qoʻyilgani asosiy matn bilan bir xil. Soʻzboshi haqidagi soʻnggi xulosamiz – kitobni koʻchirtirgan buyurtmachining qoʻlida Mahmud Koshgʻariyning avtograf nusxasi boʻlgan va u oʻz mulohazalarini shu sahifaga bitishini kotibdan soʻragan.

1915-1917- yillarda matnni ilk bor tahrir qilib, bosma nusxaga tayyorlagan Amiriyning shogirdi K.Rifat boʻladi. U ayrim oʻchgan harflarni, soʻzlarni tiklagan, shu bilan birga ikki xil harakatlangan harflarning bir variantini tanlab, ikkinchisini matnga kiritmagan va bu bilan qoʻlyozma xususiyatlarini oʻzgartirib yuborgan. Biroq, butun turkologiya asarni shu nashr asosida tanigan, 1982- yilgacha eʼlon qilingan ilmiy nashrlar, jumladan, nemis, turk, oʻzbek tilidagi nashrlarga ham tayanch boʻlgan. 1939-1941-yillarda B.Atalay ham turkcha nashrida ayrim tahrirlarni amalga oshirgan. Xususan, *yim* (zigʻir urugʻi) va *yupaĝu* soʻzi aslida qoʻlyozmada *yitim*, *يُيَاغُو* *buyaĝu* shaklida boʻlishi asosli ekanini qayd qilgan. (BA.III,24,36)¹⁵. Qoʻlyozmaga asosan mazkur izohlar oʻrinli ekani aniqlandi (MK.454/11; 459/15) Unga koʻra, *yitim* soʻzidagi *ت* harfining nuqtalari qoʻyilmagan va K.Rifat bu harfni tushirib *yim* shaklini qabul qilgan. Bu xatolik nashrlarda ham takrorlangan.

Qoʻlyozmaning bugunga qadar 5 ta faksimile nashri tayyorlangan boʻlib, barchasi Turkiya davlatida amalga oshirilgan (1941, 1990, 2008, 2017, 2018-y). Jahon turkologiyasida birinchi boʻlib, qoʻlyozma asosida matnni tarjima qilgan — oʻzbek olimi A.Rustamovdir. Biz ahamiyat bergan xorijiy nashrlardan qoʻlyozma xususiyatlari toʻlaroq ochilgan deb bilganimiz quyidagilar: R.Denkoff va J.Kellingning inglizcha, A.Rustamovning ruscha va A.Erjilasun va Z.Akkoʻyunlining turkcha nashri boʻlib, ishda nashrlar tavsifini berganmiz.

DLT xorijiy tillar bilan bir qatorda birinchi bor, 1927-yilda oʻzbek tilida nashr etilgan. Asarning yurtimizdagi ilk tadqiqotchisi va noshiri Abdurauf Fitratdir. U shu yili “Eng eski turk adabiyoti namunalari”¹⁶ majmuasiga tartib berdi. Ushbu nashr Sharqshunoslik instituti fondida inv.№16507, Anqaradagi Millat kutubxonasida 5994 raqam bilan qayd qilingan.

Fitrat DLTni toʻliq tabdil va talqin qilmagan. Faqatgina turkiy badiiy parchalar – masnaviy va toʻrtlik shaklidagi folklor namunalari nashr etgan. Majmua uch qism boʻlib, 124 betdan iborat. Sahifalar arab raqamlarida belgilangan. Eski oʻzbek yozuvida yozilgan. Iqtiboslar va ilmiy izohlar sahifa ostiga birlashtirilgan. Kirish qismiga 2-10 sahifalar ajratilgan. Boʻlot Soliyev majmuaga “*Kitob toʻgʻrisida bir-ikki soʻz*” sarlavhali soʻzboshisini yozgan.

Soʻzboshidan keyin muallif nuqtayi nazari bayon etilgan “*Bir ikki soʻz*” maqolasi keladi. Majmua 3 qismdan tarkib topgan: I qism-12-87 bet, *a-a-a-b* tizimda qofiyalangan, 139 ta toʻrtlikdan 14 ta marsiya, munozara, urushlar tasviri va lirik qoʻshiqlarga ajratilgan, sarlavha berilgan: *Alp Er toʻnga marsiyasi*, *Yoz-Qish munozarasi*, *Yoz oʻyunlari* va boshqalar. I qism 88-110 bet, tarbiyaviy-axloqiy mavzudagi 74 ta baytdan 18 ta didaktik ahamiyatli sheʼr tizimlashtirgan: *Nasihati*,

¹⁵ *Atalay B. Divanü Lûgat-it Türk Tercümesi. 3 cilt. – C. 1, 2, 3. – Ankara: Alâeddin Kırıl Basımevi, 1939, 1940, 1941.*

¹⁶ *Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. ЎзР ФАШИ, тошбосма, инв. – № 16507. (F)*

Maqtanish, Boylik to'g'risida... kabi. Ayrim soʻzlar maʼnosini shu parchalar tagida lugʻat holida taxlagan. III qism - 111-124 betlarni oʻz ichiga olgan, 132 ta soʻzning izohli lugʻatini keltirib, “Qutadgʻu bilig”, “Hibat ul-haqoyiq”, “Muqaddimat ul-adab”, “Lugʻatoyi chigʻatoyi”, “Ismoil Ogʻa sayohatnomasi” asarlarining qoʻlyozma nusxalarida kelishi bilan qiyoslab, umumiy va farqli jihatlarini koʻrsatgan. “Muqaddimat ul-adab” lugʻatida soʻzning moʻgʻulcha varianti ham keltirilgani bois, Fitrat ayrim soʻzlarni moʻgʻulchasi bilan ham solishtirgan.

Eʼtiborlisi, Fitrat DLT da berilgan toʻrtliklarni shunday olib mazmun, qofiya mosligiga qarab jamlab qoʻymagan, balki ayrim kichik satrlarni boshqa-boshqa sahifalardan olib, birlashtirib, yangi toʻrtlik yasagan. Keyin yana xuddi shunday yaralgan boshqa toʻrtliklar bilan bir turkum ostida jamlagan. Har bir tizimlashtirilgan doston, marsiya va qoʻshiqlar rim raqamlarida, tarkibidagi uzindilar esa arab raqamlarida tartiblangan. Shuningdek devon matni sahifasi va jildi ham oʻrnida qoʻyib borilgan. Namuna matnidan keyin talqin va baʼzi soʻzlarning lugʻati keltirilgan.

Fitrat *fatha, zamma, kasra, tanvin zamma* oʻrnida ا ب ج د belgilarini qoʻllagan. Ingichka soʻzlardagi alifni ham ا ga aylantirgan. Uch nuqtali ف tovushini esa ڤ bilan yozgan. Shuningdek, ingichka soʻzlarda ه belgisidan ham foydalangan (F.VIII).

2017-yilda qirgʻiz turkologi T.Chorotegin monografiyasida ¹⁷ Fitrat matn talqinida yoʻl qoʻygan bir kichik kamchilikni keltiradi. Unga koʻra, S.Malov majmuada bir toʻrtlikning soʻnggi satri notoʻgʻri talqin qilinganini qayd qilgan: “*Bulnadi meni qaraq satri yoʻlda qaroqchi tutib oldi mani*, — deb oʻgirilgan”. Shunday boʻlsa-da, Fitrat Markaziy Osiyoga DLT ni tanishtirgan ilk olim boʻlib, xizmatlari yuqori baholanishini T.Chorotegin qoʻshimcha qilgan va S.Malovning mulohazasini tahlil qilib oʻtirmagan ¹⁸.

Koʻrilayotgan parcha majmuaning 70- sahifasidan joy olgan “*Yana muhabbatka oid*” turkumiga kiritilgan. Sheʼr uch toʻrtlikdan yigʻilgan. Birinchi band bosma nashrning I.315, ikkinchisi I.317 va II.18, uchinchi, yaʼni koʻrilayotgan band esa III.13 va III.27 betlardagi ikkiliklardan yigʻilgan:

اقتورور كوزم يۇلاق	<i>Aqtürür közm yulaq,</i>	Maʼnosi:
يغاق توش قیلور ئردە	<i>Tuş qilur ördak yuğaq.</i>	Koʻzum buloq oqizadir,
ئوغراغم كه ندو يراق	<i>Uğrağm kandü yıraq</i>	Unda oʻrdaklar, yugʻaqlar
بولنادی مه نی قاراق	<i>Bulnadi meni qaraq.</i>	tushadir.
		Qasd etkanim orunning
		oʻzi yiroqda
		Yoʻlda qaroqchi tutub oldi
		meni (F.70).

مَعْنَاهُ شَاوَى بَعِيدَ لَكِنِ الْمُقْلَةُ مِنَ الْحَبِيبِ أَسْرَتْنِي فَمَنْعَتْ عَنِ قَصْرِيهِ يَغَاقُ — *Maʼnāhu šāvā baʼīdun lakinna-l-muqlahu mina-l-ḥabībi asaratini fa-manaʼat an qasrīhi yağāq* (Maʼnosi: maqsadim uzoq edi, seviklimning qora koʻzi meni asir qilib yoʻldan qaytardi) – qoʻlyozmada kelishi shunday. Bu oʻrinda Fitrat *qaraq* soʻzini “qaroqchi” deb talqin qilgan. Soʻzning maʼnosi “*koʻz, qaroq*”dir. “Qutadgʻu bilig” (QBN.223a,7)

¹⁷Чоротегин Т. Махмуд Кашгари Барсканинин «Дивану лугати т-түрк» эмгеги – түрк элдеринин тарыхы боюнча көөнөргүс булак. Илимий басылыш/Редколлегия: К. С.Молдокасымов (төрага), – Бишкек: «Турап» басмасы, 2017. – 376.

¹⁸ Oʻsha manba – B.19.

da shunday keladi: *Firāqin tōkār yaš kōrūgli qaraq* — ko‘ruvchi qaroq(lar) firoq bilan yosh to‘kadi¹⁹. Biroq Fitratning mahorati bu bilan o‘lchanmasligi kerak. Olim bosma nashrda K.Rifat yo‘l qo‘ygan xatoliklarni ham payqagan. Qo‘lyozmani ko‘rmagan bo‘lsa-da, she‘rning arab tilidagi talqiniga va matnni o‘zlashtirish ko‘nikmasiga binoan so‘zning originalini aytib bera olgan. Xususan, *Okräyuki...* so‘zi bilan boshlanuvchi to‘rtlikdagi *tikdağ* so‘zi qo‘lyozmada *tildağ* bo‘lishi kerakligini ta‘kidlab, asos keltiradi (F.14). Aytish o‘rinliki, bosma nashrdagi bu xatolikka B.Atalay ham (*tegdağ*, I.160), S.Mutallibov (*məḥḍağ*, I,174) ham e‘tibor qaratmagan. Qo‘lyozma bilan chog‘ishtirilganda Fitratning mulohazasi to‘g‘ri ekani aniqlandi: تِلْدَاغ *tildağ* (MK.90/15).

II bobda “Devonu lug‘ati-t-turk” ning o‘zbek tilidagi nashrlarida matnga bo‘lgan yondashuvlar tahlil qilingan.

S.Mutallibovning “Devonu lug‘ati-t-turk”ni nashrga tayyorlashdagi yondashuvlari. XX asrning ikkinchi yarmida Navoiy tavalludining 500 yilligini o‘tkazish munosabati bilan tuzilgan Navoiy komiteti qoshida matnshunoslik komissiyasining tashkil etilishi, o‘zbek matnshunosligining takomiliga ham katta ta‘sir ko‘rsatib, yangi bosqichga olib chiqqan²⁰. Qo‘mitaga rahbar etib turkiy va arab tilining o‘tkir bilimdoni Solih Mutallibov tayinlangan va olim Navoiyning hamda boshqa ijodkorlarning bir nechta asarlarini ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlagan. Mazkur ishlar tadqiqotchining 1960 (I jild)-1961(II jild) va 1963 (III jild)²¹ - yillarda “Devoni lug‘ati-t-turk” asarini *o‘zbek tiliga to‘liq tarjima qilib, nashr etishining muhim omili bo‘lgan*. Dunyo miqyosida uchinchi, sobiq ittifoq davlatlari bo‘yicha birinchi bor amalga oshirilgan ish hozirgi kunga qadar ko‘plab tadqiqotlarga asos bo‘lib kelmoqda.

Nashr ilmiy, ma‘naviy va ta‘limiy ehtiyoj yuzasidan amalga oshirilgan. An‘anaviy uch jild, 3000 nusxada bosilgan. Bizning hisobimizga ko‘ra, tarjimada umumiy 7222 ta (3288, 1447, 2487 ta) so‘z bosh maqolacha sifatida ajratilgan.

Tarjimon qo‘lyozmani ko‘rmagan. 1915-1917-yillarda Istanbulda e‘lon qilingan bosma nashr tayanch bo‘lgani aytiladi²². Biroq muallif bu nusxadan ko‘ngli to‘lmaganini ham bayon qilgan. Faqat turkiy matn transkripsiyaga o‘girilgan. Koshg‘ariyning qiyoslash maqsadida qo‘shgan arabcha izohlari, baytlari, arab maqollari, Qur‘on oyatlari va hadislar arab yozuvida berilib, transkripsiya va o‘zbekcha tarjimasini mavjud emas. *Qur‘on oyatlari, hadislarning tarjima qilinmagani mustabid tizimning siyosiy cheklovlari bilan bog‘liq*. Qo‘lyozma sahifalari qo‘yib borilmagan. Transkripsiyaga o‘girishda o‘zbek va kirill harflari bilan ifodalangan 40 ga yaqin belgidan foydalanilgan. Ba‘zan bir tovushga ikki xil belgi ishlatilgan. Kirish qismidan so‘ng ta‘lif va kotibning so‘zboshisi nashrga kiritilmagan.

So‘nggi tadqiqotlarda S.Mutallibov nashriga B.Atalay bilan deyarli bir xil yozilgan deb baho berilmoqda. (E-A.22)²³. Biz bu fikrga to‘la qo‘shilmaymiz. To‘g‘ri,

¹⁹ Sodiqov Q. “Qutadg‘u bilig” so‘zligi [Matn]: – T. 2020. – B. 208.

²⁰ Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги кирралари. – Т: Академнашр, 2015. – Б.59.

²¹ Маҳмуд Кошгарий. “Девону луғотут-турк”. 1-3- жилдлар. Тарж. ва нашрга тай-ловчи С. Муталлибов – Т: ЎзФА Фан нашриёти. 1960, 1961,1963. (SM).

²² Китабу Дивану луғатит турк. – Т. I-III. – Истанбул, 1333-1335 [1915-1917]

²³ Ercilasun A. B., Akkoyunlu Z. Kâşgarlı Mahmud Dîvânü Lugâti‘t-Türk (Giriş - Metin - Çeviri - Notlar - Dizin), – Ankara: TDK Yayınları. 2014. – 1120 s. (E-A)

muallif B.Atalay yondashuviga ergashgan, buning asosiy sababi — B.Atalay ham bosma nashrdan foydalanib, turkchaga o‘g‘irgan bo‘lsa-da, sahifa ostidagi ba’zi izohlarni yozishda qo‘lyozmaga murojaat qilgan. Chunki, olim turkcha nashrni tayyorlab bitirganda, ya’ni 1941- yilda qo‘lyozmaning ilk faksimile nusxasini tayyorlashga ruxsat olgan. S.Mutallibovda bu imkon bo‘lmagani uchun bosma nusxaning ayrim mavhum o‘rinlarida B.Atalay izohlariga qo‘shilishni ma’qul topgan. Biroq muallif, ayrim o‘rinlarda B.Atalay fikrlariga qarshi chiqib, o‘z qarashlarini asoslagan (SM.I,205). Umumiy 3804 ta sahifa ostiga izoh yozgan bo‘lib, aksari B.Atalay izohlariga munosabat ko‘rinishida, shuningdek, o‘zbek adabiy tili, dialektlari, Navoiy davrida qo‘llanilishi doirasidagi misollar bilan chog‘ishtirib borilgan.

S.Mutallibovning ayrim munosabatlariga, jumladan, “Qutadg‘u bilig” tili masalasiga yondashuvida biroz chalkashliklar bor. Muallif asar chigil lahjasida yozilganini asoslashga uringan (SM.I,10-11). A.Fitratning Mahmud Koshg‘ariyga asoslangan xoqoniya turkchasi haqidagi qarashlarini, Rashiddinning o‘g‘uzlar haqida keltirgan hikoyasini keskin tanqid qilib, *hukmron sinf nuqtayi nazaridan yondashib, qabilalar tilini buzib ko‘rsatganlikda* ayblaydi. S.Mutallibovning bu qarashlari zamirida sovet davri hukmron mafkurasining tazyiqi yotadi. Ya’ni, o‘tmishda ilmiy xulosalar marksizm-leninizm ta’limotiga moslashtirilishi majburiy edi, noshir ham bu siquvdan chiqib keta olmagan.

S.Mutallibov talqinda turkcha matnga emas, Mahmud Koshg‘ariyning arabcha talqiniga asoslangan: *ол нэңнi mandi* jumlasini “*u narsani topdi*” deb talqin qilinishi kerak edi. “*u yo‘qolgan narsani topdi*” (SM.II,5) deb talqin qilingan, ya’ni “yo‘qolgan” so‘zi qo‘shilgan (SM.II,5).

1967-yilda indeks-lug‘ati 2000 nusxada o‘zbek va rus tillaridagi talqini bilan nashr qilindi²⁴. Indeksning asosiy kamchiligi unda qo‘lyozmaning emas, bosma nashrning sahifalari qo‘yib chiqilgan. Transkripsiyada nashrdagi э shakli э bilan, ъ shakli esa ʏ bilan ifodalangan.

1972-yilda o‘zbek, turk va nemis tilidagi nashrlar qiyosiy-matniy tadqiqini olib borgan E.Fozilovning ilmiy maqolasida o‘zbekcha nashrda yo‘q deb ko‘rsatilgan ayrim so‘zlarni nashrda mavjudligini aniqladik: *أ* *a:* (SM.I,75), *الخلق* *a:chlik* (SM.I,137). *Açyq, aryq, artuqluq, arut, äp, äpmäk, ärdam, äräntüz* kabi so‘zlar ham shular jumlasidan.

Nashr dunyoning ko‘zga ko‘ringan turkolog olimlarining e’tirofiga sazovor bo‘lgan. Biroq turkiy so‘zlarning o‘qilishi va talqiniga oid qo‘lyozmaga mos kelmagan ayrim o‘rinlar nashr asosidagi boshqa *lingvistik tadqiqotlarda ham takrorlanganini čumğuş, Terken, ilimğa, Tarkan, oğlaq* so‘zlari tahlilida ko‘rib chiqdik. Xususan, 2002-yilda N.Abdurahmonov ilmiy maqolasida S.Mutallibov nashriga asoslanib, qo‘lyozmadagi *چمغۇق* *čumğuş* (MK.28/7,8; 236/14) so‘zini “chumchuq” deb ko‘rsatgan²⁵.

²⁴ “Девону луғотит-турк”. Индекс-луғат. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов, Ғ. Абдурахмонов – Т: ЎзФА Фан нашриёти. 1967. – 547 б.

²⁵ *Абдурахмонов Н.* Туркий тилларда ҳарф тушиш ҳодисаси ҳақида // Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғотит турк” асари ва унинг туркий халқлар маданияти ҳамда жаҳон цивилизациясида тутган ўрни номли халқаро конф. мат-лари. – Самарқанд. 2002. – Б.18.

H.Boltaboyevning “Devonu lug‘ati-t-turk”ni nashrga tayyorlashdagi yondashuvlari. 2016-yilda akademik A.Rustamov, professor H.Boltaboyev va B.Isabekov “*Devonu lug‘otit turk*”ning S.Mutallibov tarjimasiga asoslangan qayta nashri²⁶ ni e‘lon qilishdi. Mualliflar asarni 3 jildda taqdim qilgan. Texnik jihatdan ham sifatli.

Hisobimizga ko‘ra, umumiy 6962 ta bosh so‘z (3003, 1542, 2417 ta) izohlangani aniqlandi. Asosiy matn kirill alifbosida terilgan. So‘zboshida H.Boltaboyevning “Ilmi adab ibtidosi” yirik hajmli maqolasi berilgan. Taniqli turkolog N.Rahmon²⁷, B.To‘xliyevlarning²⁸ mazkur nashr tavsifiga oid ilmiy maqolalari ham e‘lon qilingan. H.Boltaboyevning ta‘kidlashicha, S.Mutallibovning tarjimasini va nashriga asoslangan holda tayyorlangan, izohlari, asosan, saqlangan (HB.2016,16). A.Rustamov S.Mutallibov tarjimasini asl bilan solishtirib, matnda tushirib qoldirilgan jumla, so‘z va iboralar hamda harflarni tiklagan.

S.Mutallibovning sahifa ostidagi barcha izohlari saqlangan. Ilovalarda tarjimonning burungi nashrdan joy olgan barcha maqolalalari joylangan. *Ilk bor DLT qo‘lyozmasining sahifalari to‘q rangda (110) qo‘yib borilgan.* Avval tarjimasini keltirilmagan, oyatlar, hadislar, arab tilidagi jumlar, she‘rlar va maqollarning o‘qilishi hamda tarjimasini izohlarda (*) berib borilgan. S.Mutallibovning izohlari raqamli ko‘rsatkich bilan satr ostiga olingan.

Matnda keltirilgan she‘riy to‘rtliklar va masnaviyalar rim raqamlari bilan [XVI] tartiblangan. Bu tartib har bir jildda alohida bo‘lib, I jildda 118, keyingilarida 47 va 76 ta jami 241 ta qo‘shiqlar va she‘rlar jamlangan. I jilddagi maqollar ajratilgan holda yangi satrboshidan yozilgan. II va III jildga kiritilgan maqollar qavs ichida tartiblangan (II jildda 50 ta, III jildda 89 ta).

S.Mutallibov nashrida tarjima etilmay qolgan o‘rinlarni olimlar kirill yozuvidagi transliteratsiyada bergani ko‘rsatiladi. Shulardan biri qo‘lyozmada turkiy tilda qo‘llanadigan harflar haqida Koshg‘ariy 18 ta harfni keltiradi va ularni qo‘shsak quyidagi so‘zlarni qamraydi (MK.6) deb arabcha izoh keltirilgan اخو كه لف سمج نرزق: transliteratsiyasi: *Ахувка лаффа самж назақ базр шутуййа? Сенинг аканг танбал, тенса тебранмас ва кўпол, эси ўзида эмас* (HB.I,25). Bu o‘rinda jumlaning transliteratsiyasi va tarjimasini bir-biriga mos. Biroq, Koshg‘ariyning arab tilidagi izohi aynan qo‘lyozmadagidek ko‘chirilmagan: *базр шутуййа* da ð o‘rniga ن yozilib ketgan va so‘z *банр* deb o‘qilishiga sabab bo‘lgan.

A.Rustamov tomonidan S.Mutallibov nashrida tushib qolgan ayrim o‘rinlar ham tiklangan. Qo‘lyozmaning ayni shu sahifasida turkiy so‘zlarning qo‘llanilishidan oldin bir jumla bor (MK.3). Joriy nashrdan bu jumla tiklangan: “*Yo Rabbim, niyatimga yetishga imkon ber! O‘zingagina suyanaman. Zotan O‘zidan o‘zga Qodir qudrat yo‘q! O‘zi niyatlarga yetkazuvchi, O‘ziga himoyachidir*”(HB.I,25). Nashrning yutuqlaridan yana biri ilk bor *Qur‘oni Karimdan keltirilgan oyatlar va hadislar transliteratsiyasi va o‘zbek tilidagi tarjimasini o‘z o‘rnida berib borilgan.*

²⁶ Маҳмуд Қошғарий. Девону луғоти-т-турк. 1-3 жилд. (Нашрга тайёрловчилар: А.Рустамов, Ҳ. Болтабоев, Б.Исабеков) – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2016. (HB).

²⁷ Nasimxon Rahmon. Turkologiyada dadil qadam. “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati”. 27-sentyabr, 2017-yil https://www.researchgate.net/publication/337812439_Turkologiyada_dadil_kadam

²⁸ Тўхлиев Б. “Девону луғати-т-турк”ка оид айрим мулоҳазалар // Turkologiya. – Т.: 2021/3. – Б. 26-36

Sarlavhalar Moskva nashri²⁹ bilan qiyoslanib, shu nashrdagi yondashuv asosida o‘zgartirilgan. B.Isabekov matnni qozoq olimasi M.Alaviyaning ruscha tarjimasini va V.Radlov tarjimasini bilan qiyoslagan, zarur o‘zgarishlarni qayd etdi deyiladi kirish qismida. Biroq, “Radlov tarjimasiga”ga havola ko‘rsatilmaydi. Shuningdek, olim matnni “Qadimgi turkiy til lug‘ati” bilan ham solishtirgan va izohlarda qayd etib borgan³⁰.

Unlilar transkripsiyasida 9 ta belgi — *a, ä, ə, i, ĩ, y, j, o, ö*; Undoshlar uchun 25 ta — *б, w, z, d, e, ж, з, j, к, л, l, м, н, ң, п, р, с, т, ф, х, ч, ш, қ, э, җ* harf ko‘rsatilgan (HB.I,19-20). Unlilardan [ə] belgisi [ä] bilan bir xil talaffuz etilishiga qaramay, ishlatilgan o‘rinlarda saqlanib qolingani aytilgan. Aslida S.Mutallibov nashridagi [ë] o‘rnida [ə] dan foydalanilgan: *Эмдї узїн узүндї* (SM.I,209) — *Эмдї узїн узүндї* (HB. I,149).

Shuningdek, *E, e* – bu belgi bilan o‘zbek kirill alifbosidagi *ë+ə* emas, balki [ë] ning o‘zigina ifoda etilganligi qayd qilingan (HB.I,19). Biroq matnda bu belgi hech bir o‘rinda aniqlanmadi. [ë] deb berilishi ham noaniq, bu belgi ham joriy transkripsiyada mavjud emas. *ë+ə* tovushi o‘rnida lotincha [j] ishlatilgan. [Z] belgisi ta’riflanganda ham shunday noaniqlik bor: “*Ushbu nashrda [z] harfi bilan til-tish undoshi va oldingi nashrda arabcha j harfi bilan ifodalangan tovush aks ettiriladi*” (ko‘rsatilgan sahifa). Bu yerda *j* emas, *z* ta’riflanmoqda.

Undoshlar bilan bog‘liq shunday xilma-xillik ham uchraydi. Mazkur jildning 229-dan 234- sahifasigacha [j] belgisi “*й*” ni emas, “*ж*” ni ifodalagan va bu holat 239- sahifada ham kuzatildi. Nashr ko‘rsatkichlarida *ج* transkripsiyasida [j] belgisi nazarda tutilgan. S.Mutallibov kabi *ج* uchun ikki xil – *l, л* tovushlaridan foydalanilgan. Shuningdek, buning aksi, ikki xil undosh tovush bir xil belgi bilan transkripsiyaga olingan: *z* uchun [з] va [z] belgilari ishlatilgan. *z* va *j* uchun ham [э] belgisi olingani sabab ayrim o‘rinlarda ma’no farqlanishiga ham olib kelgan.

Qo‘lyozmaning ba’zi sahifalari qo‘yilmagan (57, 59, 60, 61, 83, 104, 622, 633, 635, 637, 638). I jild 71- sahifadan *з* va *z* transkripsion belgi sifatida bir tovush uchun qo‘llangan, aksariyat ikki tovushga bir belgi qo‘llangan: *z* uchun bitta *з* olingan. 239-272 sahifalarda misoli keltirilayotgan harflar yozilmay qolgan.

To‘rtliklar va masnaviy shaklidagi parchalarning arab yozuvida berilishi I jild 179- sahifagacha S.Mutallibov nashridan aynan nusxalangan. Ayrim o‘rinlarda esa mualliflar tomonidan she’rning transkripsiyasiga kiritilgan tuzatishlar bilan tafovutga olib kelgan:

كَلْدَى مَنكَا تَاتْ

قُشَقَا بُلْبُ آبْ

Кэлдї меңә тат,

Қушқа бўлуб әт,

أَيْدِمُ أَمْدَى يَاتْ

سَنَى تَلَارْ أَسْ بُرَى

Ајдїм әмдї јат,

Сені тиләр үс бүрї. (HB.I,44)

Qo‘lyozmaga ko‘ra, she’rdagi *أسْ* so‘zi *أسْ* shaklida (MK.30/10). Bu ikki so‘z oldin-keyin to‘rtlikdan oldin lug‘atda keladi. Biroq S.Mutallibovda “*ac*”, ya’ni *йиртқич ҳайвонларга теккан парча гўит; ўлимтик* (SM.I,72) ma’nosidagi so‘z

²⁹ *Махмуд ал -Кашиғари. Диван лугат ат-турк (Свод тюркских слов) : в 3 т. / Пер. с араб. А.Р. Рустомова под ред. И.В. Кормушина, прим. И.В. Кормушина, Е.А. Поцелуевского, А.Р.Рустомова. – М: Вост. лит., 2010-том 1. – 461 с. (R-K)*

³⁰ *Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969.*

“*us*”, *ya*’ni *karкас қуши; бурғум* (SM.I,72) so’zi o’rnida qo’llangan. Mazkur so’zlar nashrda omonim qilib berilgan. Originalda keyingi so’z va to’rtlikdagi birlik “*us*” (MK.30/9,10).

Maqolalar ketma-ketligi tartibi almashgan o’rinlar ham bor: *očüm* – ўч, қасос, *азум* – кафт, бир кафтга сиғарлик (HB.I,54). S.Mutallibovda ham ayni tartib saqlangan (SM.I,84). Bu so’zlar ketma-ketligini Mahmud Koshg’ariy nusxasi bilan qiyoslaganimizda esa *očüm* so’zi va unga berilgan ta’rif bu sahifada mavjud emasligi aniqlandi. H.Boltaboyev satrosti izohida bu so’z Moskva nashrida tushib qolganligini ko’rsatgan. Biroq, mazkur so’z qo’lyozmaning ko’rsatilgan 36-sahifasida emas, keyingi 37-sahifasida *ارت ات* (harakatlar qo’yilmagan) so’zidan keyingi o’rinda ekanligi va Moskva nashrida ham mavjud ekanligi aniqlandi. Shuningdek, ayrim o’rinlarda bosh so’zlar va ularning izohi uchun berilgan birliklarda xilma-xillik mavjud: *ämilgän* – *Мэниң йиім эзгүлүгүн әmilgän ол.* (HB.I,12), *үкдi* – *Ол жармақ өкдi* (HB.I,29).

Qosimjon Sodiqovning “Devonu lug’ati-t-turk”ni nashrga tayyorlashdagi yondashuvlari. 2017-yil “Devoni lug’ati-t-turk”ning o’zbek tilida Solih Mutallibov tarjimasida asosida qayta ishlangan, to’ldirilgan, o’zgarishlar kiritilgan mukammal nashri (QS.2)³¹ turkologiyaning yetuk olimlaridan professor Qosimjon Sodiqov tomonidan chop qilindi. R.Alimuxamedovning qayd etishicha: “Domla Qosimjon Sodiqovning ayni kitob ustida o’n bir yildan buyon ter to’kib mehnat qilayotganliklarining shaxsan guvohiman”³².

Nashr bir jild, 2000 nusxada bosilgan. Asosiy matn kirill alifbosida, umumiy 482 sahifadan iborat. Bizning hisobimizga ko’ra, 7596 ta bosh so’z izohlangan. Badiiy namunalarning umumiy hajmi esa 243 ta (856 misra). Shundan 185 ta to’rtlik va 58 tasi ikkilik baytlardir. Maqollar esa I.Mirzaaliyevning hisobicha, 298 ta.³³ Shundan 42 ta maqol takror kelgan. Sahifa ostida jami 91 ta izoh berilgan.

192-195 betlar orasida qo’lyozmaning uyg’ur harflari keltirilgan 6-sahifasi, Mahmud Koshg’ariyning yer yuzi xaritasi va 474- beti faksimile nashrdan aynan sifati o’zgarmagan holda nusxalanib, yangi varaq bilan biriktirilgan. Ushbu nashrni tayyorlashda muallif DLT qo’lyozmasining 1990 va 2008-yillarda chop qilingan faksimile nusxasidan foydalangan.

Maqolalar *أُكُ oçaq (ўчак)* – ўчоқ; fe’lli birikmalar [*كُجُردى köçürdi (күчурди)*-кўчириб ёзди] *ол битиг көчүрди* – у китоб ёзди — ko’rinishida berilgan. Turkologiyada qabul qilingan lotin yozuvi asosidagi transkripsiya belgilaridan foydalanilgan: Unlilar – *ä, a, e, i, ï, o, ö, u, ü*; Undosh tovushlar uchun – *b, p, d, t, q, k, ğ, g, x, z, s, š, č, y, l, m, n, ŋ, r* harflari hamda *و -v, ف/ف – w, ژ — ž, ذ — δ* belgilaridan foydalanilgan. Shuningdek, arabcha atamalar (*manqūš*), shaxslar (*İbrahīm, δū-l-qarnayn*), joy nomlari (*Čanbaliq*), alohida ma’nosi ajratilgan so’zlar, arab harflari, iboralari (*axtardi* - ... bu so’zdagi *xā* harfi *ğayn* harfi o’rniga almashib kelgandir) transkripsiyaga o’girilgan.

³¹ Махмуд Кошгарий. “Девону луғати-т-турк”. – Т: Фафур Гулом. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиков 2007. – 482 б.

³² Алмухамедов Р. Проф. Қ.Содиков томонидан тайёрланган “Девону луғати-т-турк” асарининг янги нашри // “Девону луғоти-т-турк” – туркий халқларнинг ноёб ёзма ёдгорлиги” мавзuidaги халқаро илмий анжуман материаллари. – Т., 2018. – Б. 122.

³³ Мирзаалиев И. Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси. (“Девону луғоти-т-турк” материали мисолида): Фил. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дис. автореф. – Т., 2020. – Б. 14.

Turkiy matnda yo‘g‘on aytiladigan so‘zlardan keyin jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasining – *qa* shakli (*Itqa uwut etsä (yetsä?)*, *uldañ yemäs* (QS.59) kelgani uchun ham muallif jarangli, sonor undoshlar hamda unilardan keyin *-ka* variantini olgan: *Ötrük ütün oğrīlayu yüzkä baqar; ...Bulmaduq nāñkā sewinmāñ...* (QS.168) “Qutadg‘u bilig”ning Namangan nusxasida, O‘rxun yodnomalarida – *qa*, *-ka* shaklida kelgani ³⁴ uchun ham shunday yo‘l tutilgan. So‘zning yo‘g‘on va ingichka aytilishidan qat‘i nazar birinchi va ikkinchi shaxs birlikda shaxs-son qo‘shimchalarining *-men*, *-sen* shakllari olingan: *Idimni oğār-men...Bulmīš nāñig sewār-sen...*(QS.445). Bunda muallif Ko‘kturk matnlariga tayangan. Talqinda Mahmud Koshg‘ariy bir jumla tarzida bergan izohlar S.Mutallibov tomonidan ikki jumlagacha o‘zgartirilgan. Q.Sodiqov aslyyat kabi yana bir jumla holida talqin qilgan.

Qo‘lyozmada 61 ta masdar birato‘la ham qāf ق , ham kāf ك bilan قى ligaturasida yakunlangan. K.Rifat buni xato hisoblab, ikkisidan birini olgan. B.Atalay 27 o‘rinda maxsus izohlar qo‘shgan va u ham harflarni birini tanlagan³⁵. Ingliz tadqiqotchilari R.Denkoff va J.Kelly tadqiqotida harflar kombinatsiyasining 36 tasida avval ك , so‘ng ق yozilgan. 21 o‘rinda aksincha, ق oldin, ك esa keyin (jami 57 ta) qo‘llangan (D-K.64,65). Masdarlarning ikki xil yakunlanishi ayrim lahja yoki shevalarga xos xususiyat bo‘lishi mumkinligi taxminlangan. Q.Sodiqov bu masalaga yetarlicha e‘tibor bergan, qo‘lyozmaga binoan ligatura bilan yakunlangan masdarlarning 51 tasini nashrga kiritgan.

Lug‘atda bosh so‘z vazifasida kelgan ayrim birliklarda undosh ustida ham fatha, ham kasra yoki zamma va kasra qo‘yilgan. Shuningdek, so‘z o‘rtasida kelganda yozilishi bir xil, faqat nuqtalari o‘rni va soniga ko‘ra farqlanadigan undoshlarda aynan ost-ust nuqtalari baravar qo‘yilgan. K.Rifat faqat bitta variantni qoldirib, qolganini xatolik deb bilgan bo‘lsa, A.Rustamov *сэвук/севук* va *бэк/бек* kabi bir so‘zning turli variantlari deb qabul qilgan (AR.I,19) ³⁶ . A.Erjilasun va Z.Akko‘yunlilar ularni ham kotibga, ham keyingi asrlarda matnни tahrir qilgan boshqa kotibga tegishli deb hisoblaydi.

Q.Sodiqov matnning bu xususiyatini aynan kotibning qalamidan chiqqani, u matnни xato ko‘chirishi mumkin emasligini, balki Mahmud Koshg‘ariy so‘zning dialektal variantini ko‘zda tutganini ta’kidlaydi va nashrga ikki variantni ham kiritadi. *تَقْلَدِي/تَقْلَدِي* *tiqildi / taqildi – et šišqa tiqildi / tāqildi – go’sht six* va boshqa narsalarga taqildi (QS.246).

Matnda o‘n to‘rtinchi o‘g‘uz qabila nomi كَادْ ga keyingi fatha va kasra jigarrang siyohda qo‘shilgan. Bu esa so‘zning ham *igdar*, ham *igdir* o‘qilishini ta’minlaydi. (MK.40/14). S.Mutallibovda *-izdäp* (SM.I,90) va boshqa nashrlarda, ya’ni turkcha (BA.I,57), inglizcha (D-K. I,102), ruscha (R-K,96), M.Auzeva ruschasi (MA.I,92) da – *igdir* olingan. 2009-yilda ozarbayjon olimi B.Xelilov “Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida etnonimlar”³⁷ monografiyasida F.Sumarning “O‘g‘uzlar” tadqiqotiga murojaat qilgan. DLT bilan deyarli bir davrda yozilgan tarixchi Rashididdin va Y.Aliyaning asarlarida keltirilgan o‘g‘uz

³⁴ Алиев А., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. – Т., 1994. – Б. 58.

³⁵ Şaban Kurt. Özel Adlar Dizini. – Istanbul, 2008. – S.17.

³⁶ Маҳмуд ал Каушари. Диван лугат-ат-турк. (Свод тюркских слов). Перевод с арабского языка А. Рустамов. под редакцией С.Хасанова, Ш.Хасановой, С.Рустамий, М.Рустамова и др. Том III – Т: Мумтоз сўз. 2018.

³⁷ Xəlilov B. Mahmud Kaşgarinin “Divani lügət-it-türk” əsərində etnonimlər.”Garisma” mms. – Baki.2009. – S.110

qabilalarining tasnifi bilan qiyoslangan. Unga ko‘ra, qabila nomi DLT da — *igdir*, Rashididdinda — *yigdir/iqdir* shaklida qayd etilgan. B.Xalidov mazkur qabila etimologiyasini shunday keltirgan: “Katta ehtimol bilan bu etnonimning ilk varianti *yigdir* bo‘lgan. Bunda *iq//yiq//yiqd* variantlari *igid* so‘zining fonetik variantlaridir. *iqdir* etnonimi “ulug‘lik, g‘urur” ma’nosini anglatishi ham buni tasdiqlaydi. *Iqdir* etnonimidagi “*ir*” qismi “kishi, odam, er” ma’nosinin bildiradigan *är* so‘zining fonetik variantidir³⁸. Bundan Koshg‘ariyning qabila nomini ham *igdar* ham *igdir* ekanligiga ishora qilgan deb taxmin qilish mumkin. Q.Sodiqov nashrida esa shunday keladi: “... ўн тўртинчи қабилә игдәр/игдир – игдарлардур”. (QS.37) *er ištīn/ištān qizğutlandi*, تَرْمُتْلاندى *tarmutlandi* (*turmutlandi?*) tahlilida ham shunday xulosalar olindi. Hozirgi jonli nutqda ham buni ko‘rishimiz mumkin : *urish / urush, kulgi / kulgu* kabi. Xususan, “kulgi” so‘zi matnda ikki harakatli : كُنج / كُنْج *külünč / külinč* — кулги (QS.450). Shuningdek, salmoqli o‘rinlarda ikki variantlilik qo‘shimchalar doirasida kelgani kuzatildi. Nashrdagi asosiy qusur qo‘lyozma sahifalarining qo‘yilmagani va turkiy jumla, birikmalar arab yozuvida berilmaganidir. Biroq 2021-yilda ushbu kamchilik tuzatilib, nashr Istanbulda turk olimlari tomonidan qayta chop qilindi³⁹.

III bobda “Devonu lug‘ati-t-turk” asari o‘zbekcha nashrlarining matnlardagi tafovutlari va o‘ziga xosliklari tadqiq qilingan. Biz o‘zbek tilidagi nashrlarni o‘zaro qiyoslaganimizda, 3000 ga yaqin matniy tafovutlarga duch keldik. Ularni 650 tasini saralab, tasniflashtirdik va qo‘lyozma bilan ham qiyosladik. Natijalar katta hajmli jadvalga joylashtirildi va ish so‘nggida ilova qilindi. She’riy parchalarning tahlilida esa Fitratning majmuasi ham ilk bor qiyosiy tahlilga tortildi va qo‘lyozma bilan chog‘ishtirildi.

Nashrlarda muqaddima qismi bilan bog‘liq matniy tafovutlari. Qiyosiy tahlilida 50 ga yaqin matniy tafovutlar borligi ko‘rindi (1-ilovaga qarang). Bu tafovutlarning birinchisi lug‘at nomi bilan bog‘liq: “*Девону луғотим турк*”- “*Девону-луғоти-т-турк*”- “*Девону луғати-т-турк*”. Qo‘lyozmada: ديوان لغات الترك — *Divānu luğāti-t-türki*.

Mahmud Koshg‘ariy turklar haqida ishonchli buxorolik va nishopurlik olimdan⁴⁰ eshitgan bir hadisni keltirgan. S.Mutallibov ushbu hadisni aytgan roviyning *payg‘ambarga nisbat berganligi* ni yozgan (SM.I,42; HB.I,22). Q.Sodiqov nashrida bu jumla *payg‘ambarga nisbat berib, sanadi bilan aytgan edilar* ko‘rinishida yozilgan (QS.14). Matnda : كِلَاهُمَا رَوِيَا بِإِسْنَادٍ لَّهُمَا عَنْ رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ *kilāhumā ravayā bi isnādi lahumā ‘an rasūli-l-lahi šalla-l-lohu ‘alayhi va sallama*, ya’ni *har ikkisi ham Rasululloh s.a.v haqida u ikkisining sanadi bilan rivoyat qiladilar*, deyiladi (MK.2/16).

Mahmud Koshg‘ariy arab tilidagi itboq harflar turkiy birorta qabila tilida ham uchramasligini, bu harflardan ث *sā* ni yozish uchun turkcha dāl suratida yozilib *ustiga nuqta qo‘yiladi* (تَنْقَطُ عَلَيْهَا — *tunqatu a‘layhā* MK.7/13) deb yozadi. Shu o‘rin S.Mutallibov va H.Boltaboyev tarjimasida *ustiga qo‘sh nuqta* (ya’ni ikkita nuqta)

³⁸ O‘sha manba. – B. 104-105.

³⁹ Маҳмуд Қошғарий. Туркий сўзлар девони. Нашрга тайёрловчи Қосимжон Содиков. Академик Kitaplar. – Istanbul. 2021. – S.776

⁴⁰ Qo‘lyozmada “olim” so‘zi o‘rinda “imom” keladi.

qo‘yiladi deb yozilgan (SM.I,49; HB.I,26). Q.Sodiqov bu o‘rinni qo‘lyozma asosida tuzatgan (QS.17). Shuningdek, S.Mutallibov nashridagi *табзади, жазмур, жавар, чумчук, бэжэнэк, жазм, қузурғун, јізан, јізај, азгір, ол эwgä барғулуқ эрди, ол киши ол бізгә кәләгән* kabi so‘zlar tarkibidagi matniy tafovutlar aniqlangan.

Lug‘at qismining nashrlardagi qiyosiy-matniy tafovutlari.

O‘zbekcha nashrlarning qiyosiy tahlilidagi ilk tafovut lug‘at statistikasi bilan bog‘liq. Hisobimizga ko‘ra, S.Mutallibov nashrida 7222 ta, H.Boltaboyev nashrida 6962 ta, Q.Sodiqov nashrida esa 7596 ta bosh so‘z aniqlandi. Bu tafovutni ikki omil yuzaga chiqargan:

1) Matnda noshirlar o‘z yondashuvlariga asosan ko‘p ma‘noli yoki omonim so‘zlarni bir maqola tarkibida bergan yoki aksincha, ular alohida olingan.

2) Nashrlarda lug‘atning ayrim leksik birlik sifatida izohlanayotgan so‘zlari va ularning izohi tushib qolishi bilan bog‘liq holatlar aniqlandi. Qo‘lyozmaning 579-hamda 580- sahifalarida kelgan beshta maqola *يَلْنَادِي , يَشْنَادِي , يَمْلَادِي , يَمْلَادِي , يَمْلَادِي* (*yikladi, yamladi, yimladi, yashnadi, yelnadi*) bosh so‘zlari, ular birikkan jumlar va arab tilidan tarjimai DLT ning S.Mutallibov va H.Boltaboyev nashriga kiritilmagan. Q.Sodiqov qo‘lyozma asosida tiklagan (QS.428). Shuningdek, H.Boltaboyev nashriga matnning 318/3 sahifasidagi *الْ اِنْكَ بَرْلَا كِ كَرَشْدِي* ⁴¹ *ol anig birlä kerisdi* (HB.II/66), 418/3 sahifasidagi *الْ اِنْكَ قُلْنِ كُرْتِي* *ol anig qulin kuratti* (HB.II/203) birikmalari, shuningdek, 104/7 sahifadagi *Ölišdi näñ* maqolasi har ikki nashrga kiritilmagan (SM.I,196; HB.I,142).

Nashrlardagi keng ko‘lamli tafovutlarni “so‘z” va “tovush” doirasida tahlil qildik.

“So‘z” doirasiga tafovutlar

1. *So‘zlarning tushishi yoki orttirilishi.* Matnda kelgan “ol” olmoshining nashrlarda orttirilishi ikki omil asosida yuz bergan: a) Matnda “ol” olmoshi ko‘p o‘rinlarda *bu, aňar* olmoshlari bilan birga kelgani uchun noshirlar qo‘shib yuborgan bo‘lishi mumkin: *ол мәнә суwлуқ сарлашди* (SM.II,2494; HB.II,141) — *meňa suwluq sarlaşdi* (QS.273) — *مَنْكَ سَلْقُ سَرْلَشْدِي* (MK.374/5). b) Keltirilgan o‘rnaklarning barchasidan oldin arabcha izohda *يُقَالُ yuqālu* (deyiladiki, aytiladiki) so‘zi kelgan va turkiy matn shu o‘rindan boshlanib ketgan. *يُقَالُ yuqālu* so‘zining so‘nggi ل va uning zamma harakati *ال ol* so‘ziga juda o‘xshash yozilgan va bir qarashda *ال ol* deb o‘qib yuborish mumkin. Jadvaldagi 6 ta birikmani B.Atalay nashri bilan solishtirdik. 4 nafari S.Mutallibov bilan bir xil. Demak, olmoshlarning tushirib qoldirilishi yo B.Atalay yoki K.Rifatning harakati. H.Boltaboyev S.Mutallibov kabi yozgan. Q.Sodiqov qo‘lyozma asosida tiklagan.

Bu namunalarda esa *ol olmoshi nashrda tushirib qoldirilganini* ko‘rish mumkin: *эп іјінді* (SM.I,265)- *эп іјінді* (HB.I,189)- *ol er iyindi* (QS.113). Matnda kelishi: *ال آر ايندي* ⁴² (MK.138/8).

2. Birikmalar tarkibidagi so‘zlarning almashinishi

1) Tarkibidagi so‘z boshqa so‘zga almashgan, biroq talqinda qo‘lyozmadagi holat aks etgan: *ол аниң өпкасин эмүртти — у бекнинг газабини тинчлатди*

⁴¹ Al so‘zida alif ustida zamma qo‘yilmagan.

⁴² Al so‘zining zamma harakati qo‘yilmagan. Birikmadagi boshqa harakatlar va sukun jigarrang siyohda qo‘yilgan.

(SM.III,226; HB.III,282) — *ol beg öpkäsin amurtti- у бекнинг газабини тинчлатди* (QS.470) — *أَل بَاكُّ أَبْكَاسِنِ أُمْرَتِي* (MK.630/1).

2) Tarkibidagi soʻz ham, talqini ham boshqa soʻzga almashgan: *Ол мөндә тўнәди* – у менинг ёнимда тунади (SM.III,289; HB.III,187) — *Ol munda tünädi* – у бу ерда тунади (QS.417).

3) Qoʻlyozmaning oʻzida soʻz va uning talqini almashgan, shu sabab nashrlarda ham almashgan: *اي انه⁴³ أَحْسَانِي الْمَرْقَةَ وَ غَيْرَهُ - أَل مَنكَ سُوْتِ أُبْرَدِي* (MK.97/15,16) – yaʼni, *ay anahu ahsāni-l-maraqata va ğayrahu* — *Ol meñä sūt öpürdi* — u menga shoʻrva va undan boshqasini ichirdi. Oʻzbekcha nashrlarda: *Ол мәнә мүн үнүрди* – У менга шўрва ичирди (SM.I,186; HB.I,134) — *Ol meñä sūt öpürdi* - У менга сүт ичирди (QS.84).

Bu yerda S.Mutallibov arabcha talqin asosida turkiy matnni oʻzgartirgan boʻlsa, Q.Sodiqov turkiy matn asosida arabcha talqinni oʻzgartirgan. Kotibning bu yanglishishiga sabab — matnda *öp* asosli feʼllar har doim yo *sut*, yo *mün* (shoʻrva) soʻzi bilan yonma-yon qoʻllangan.

3. Talqinga oid tafovutlar. Oʻzbekcha nashrlarda turkiy matn talqiniga oid tafovutlar ancha kam boʻlib, 20 tachasini aniqladik va 8 – ilovada qoʻlyozmadagi talqini bilan koʻrsatdik.

1) *ол әни тамгақладі* – birikma talqini S.Mutallibov av H.Boltaboyev nashrida tushirib qoldirilgan (III.362; 231) Q.Sodiqov tiklagan - у унинг томоғидан бўғди (QS.441). Matnda *اي انه ضَرْبُهُ عَلَى حَافِهِ* yaʼni, *ay anahu ğarabahu ʼalā ħalqihī* – u uni boʻyniga (halqumiga) urdi (MK.598/5).

2) Talqin qoʻlyozmaga mos kelmagan holatlar: *јағиш – ислом динидаги одамларнинг бутларга назр қилиб сўядиган қурбонлари* (SM.III,18; HB.III,9) — *yağış – жоҳилия давридаги кишиларнинг бутларга сизиниб, уларга атаб сўядиган қурбонликлари* (QS.327) — *اهلُ الْجَاهِلِيَّةِ aḥlu-l jaḥiliyaḥī* yaʼni *johiliya ahli* (MK.448/17). Keyingi namunada esa, matn talqini S.Mutallibov va Q.Sodiqovda bir xil, H.Boltaboyev oʻzgartirgan: *баш туттү – яра оғрумтү* (SM.II,337; QS.229) — *баш туттү – бош оғриди* (HB.II,194). Qoʻlyozmada *بَاشٌ تُتِّي أَي أَمْضُ الْجُرْحَ بِضَرْبَانٍ* (MK.411/17) – *baš tutti* — *ay amaḍḍa-l-jurḥa bi-ġarabānin*, yaʼni *yaraga zarba berib ogʻritti*. Aniqlashimizcha, matnning boshqa bobida (510/14) bir oʻrinda ikki marta *baš* soʻzining maʼnosi izohlangan: 1. *بَاشُ الرَّاسِ baš* — *ar-raʼsu* (*bosh*); 2. *بَاشٌ الْجَرَاةُ baš* — *al-jarāḥatu* (*jarohat*). Soʻzning omonimligi ikkinchi nashr mualliflarini chalgʻitgan boʻlishi mumkin.

3) Qoʻlyozmaning oʻzida talqin noaniq, shu sabab nashrlarda talqin uch xil: *ол көчүт көчүрди* — “у отни бир жойдан бошқа жойга кўчирди” (SM.II,79) — у нарсани бир жойдан бошқа жойга кўчирди (HB.II,51) — у ўтни бир жойдан бошқа бир жойга кўчирди (QS.229). Qoʻlyozmada: *أَي أَنَّهُ نَقَلَ الْفَرَسَ مِنْ مَوْضِعٍ إِلَى آخَرَ - أَل كُجْتُ كُجْرَدِي* – yaʼni, *ol koçut köçürdi ay anahu naqala-l-farasa min mavḍiʼin ila axar* – yaʼni, *u otni bir joydan boshqa joyga koʻchirdi*. Bu yerda S.Mutallibov arabcha izohga, Q.Sodiqov turkcha matnga qarab talqin qilgan. Bizningcha, kotib talqinda *farasa* (ot, toychoq) soʻzini yozishda bitta harfga yanglishgan. Agar *غَرَسَ ğarasa* deb yozganida turkiy matn va talqin mos tushar edi. Chunki *ğarasa* soʻzi

⁴³ Mazkur soʻz arab tilidagi *أَل* yuklamasi boʻlib, qoʻlyozmaning aksariyat oʻrinlarida uning *ن* harfi taʼdid belgisiz yozilgan (dissertatsiya va ilovada shu holatda koʻrsatdik).

“ekin, ko‘chat” degan ma‘noni bildiradi. Katta ehtimol bilan Mahmud Koshg‘ariy avtografida *ğarasa* yozilgan deb taxmin qilamiz.

“Tovush” doirasidagi tafovutlar

1. Unli tovushlarning tushishi. Turkiy o‘rnaklarda unli tovushlarning matn o‘qilishida tushib qolishi asosan fe‘l boblariga to‘g‘ri keladi. Qo‘lyozmada (MK.483/3,4,5) va nashrlarda (SM.III,102; HB.III,62) – (QS.354,355) kelgan 4 ta *yelpirādi* fe‘lida qo‘lyozmada ۋ fatha olgan, sukun bitta. Bu ikki nashrda ۋ ustida ham, ۋ ustida ham sukun qo‘yilib, *jālnip̄di* o‘qilishi ta‘minlangan va bir unli tushirib qoldirilgan. H.Boltaboyev harakatlar qo‘ymagan. Bizningcha, S.Mutallibov boshqa jihatga e‘tibor qaratgan. Mazkur fe‘llar “To‘rt harflilar” bo‘limining *fa‘laldī* qolipidagi turli harakatlarda talaffuz etiladigan so‘zlar bobiga oid. Bu o‘lchovga esa *yelpirādi* so‘zi mos emas, bir unli ortiqcha. *Yelpirdi* bo‘lsagina mos keladi. Mazkur bobda shu to‘rtta fe‘lli birikmadan keyin keladigan barcha so‘zlar *fa‘laldī* qolipiga mos tushadi. Bunday fe‘llardan 20 yaqin aniqlandi va ilovalarda ko‘rsatildi. Shuningdek, ismlarga oid tovush tushishdagi tafovutlar ham tahlil qilingan.

2. Unli tovushlarning orttirilishi. Keyingi fe‘lda esa Q.Sodiqov nashrida tovush orttirilgan: *كَجْرُشْدِي kečürüşdi* so‘zida ikkinchi *zamma* orttirilgan. Birikma esa quyidagicha o‘qilgan: *olar bir-birniñ yazuqin kečuruşdi.* (QS.275). Qo‘lyozmada yozilishi: *أَلَزْ بِيْرِنِكْ يَزُوْقِنْ كَجْرُشْدِي* (MK.378/1). S.Mutallibov va H.Boltaboyev nashrlarida esa qo‘lyozmadagi kabi olingan: *олаp бiр-бiрiң жазуқиn кэчрүшди* – (SM.II,258; HB.II,147). Shuningdek, *بِيْرِنِكْ* so‘zi nashrlarda *бiр-бiрiң* — *bir-birniñ* tarzida o‘qilgan.

3. Unli tovushlarning har xil o‘qilishi. O‘zbek nashrlarida unlilar quyidagicha har xil o‘qilgan: *ə-ā-a, a-ə-a, y-y-o, ȳ-ȳ-o, ȳ-ȳ-ō, a-a-e, ȳ-ō-ō, o-y-u, a-a-ü, ö-ö-u, i-ī-e, ə-ə-i, ə-ȳ-o.* Bu farqli holatlar 3 guruhga ajratildi:

1) Yozilishi qo‘lyozmaga mos, o‘qilishi (transkripsiyasi) har xil: *أَرْكْ* (MK.33/14) — *əpк* (SM.I,78) – *äpк* (HB.I,49) – *erk* (QS.31) - erk; podshohlik va buyruq o‘tkirliги.

2) Yozilishi ham, o‘qilishi ham qo‘lyozmaga mos emas: *أَغْرَشُقْ aęypuақ* (SM.I,165) — *أَغْرَشُقْ aęypuақ* (HB.I,117) - *أَغْرَشُقْ oęurşuq/oęirşuq* (QS.74).

3) Qo‘lyozmada harakati qo‘yilmagan tovushlarning o‘qilishi masalasi. *Somon va kepak aralashtirib beriladigan yemish ma‘nosidagi اشبار* so‘zining birinchi harfi harakatsiz (MK.71/12). Nashrlarda: *اشبار iuḅap* — (SM.I,140; HB.I,96) — *اشبار ašbar* (QS.60). Aniqlashimizcha, bu so‘z matnning 439- sahifasida ham takror kelgan va harakati qo‘yilgan: *أَلْ أَتْقَا أَشْبَارِ بَلْبَتِي ol atqa ašbar yelpitti* (MK.439/1).

Undosh tovushlarning o‘qilishidagi tafovutlar

1. Undosh tovushlarning tushishi yoki orttirilishiga : *боғмақладі* (SM.III,362; HB.III,231) — *boğmaqlaldī* (QS.441) — *بُغْمَقْلَادِي* (MK.598/4). Bu o‘rinda turkiy so‘zning yozilishida ham, o‘qilishida ham undosh tovush tushirilgan. *армут қатыттi* (SM.II,328) – *армут қатыттi* (HB.II,187) — *armut qatutti* (QS.296)- *أَرْمُتْ قَاتُتِي* (MK.408/9). Bu birikmada matndagi tashdid o‘qilmagan.

2. Undosh tovushlarning har xil o‘qilishi. Mazkur qism tadqiqotimizda keng ko‘lamli tahlil qilingan bo‘lib, quyidagicha guruhlarga ajratilgan, farqlarni yuzaga keltirgan omillar aniqlangan:

1) **Undoshlarning yozilishi qo‘lyozmaga mos, faqat o‘qilishida farq qiladi.** Nashrlarda eng ko‘p tafovut mazkur tipga oid: *b-p, g-k, j-č, w-f, δ-z.*

b / p — Bu tovushlar arab, uygʻur yozuvli turkiy matnlarda bir harf bilan⁴⁴, Oʻrxun-Enasoy manbalarida esa maxsus harflar bilan alohida ifodalangan⁴⁵. Xususan, ilk nashr I jildidagi 12 ta soʻzni Q.Sodiqov nashrida tuzatilgan holatini tahlilda berdik. Shuningdek, S.Mutallibov va H.Boltaboyev matnda kelgan ravishdosh qoʻshimchalarini *-b, -ib, -yb/ÿb*; Q.Sodiqov esa *-p, -ip, -up/ÿp* tarzida oʻqigan va bu yondashuv ham maʼlum qarama-qarshi oʻrinlar koʻlamini kengaytirgan.

g / k – S.Mutallibov nashrining I jild 155-168 sahifalari ichida 12 soʻzda shunday farqlar belgilandi va keyingi ikki nashrda tuzatilgan oʻrinlar ishda tahlil qilindi. *Ol ölykkä joğladï* (SM.III,324; HB.III,208) jumlasidagi *ölykkä* soʻzi Q.Sodiqov nashrida *Ol ölügka yoğladi* oʻqilgan (QS.428). Qoʻlyozmada *أَلْكَكَا يُغْلَادِي* (MK.579/7). Eʼtiborli jihati *أَلْكَكَا* soʻzida ikkita *kaf* harfi ketma-ket yozilgan. Demak, bu ikki harf ikki xil tovushni ifodalagan, yaʼni biri — jarangli [g], biri — jarangsiz [k]. Aks holda Mahmud Koshgʻariy yoki kotib bitta *kaf* yozib, ustida taʼdid belgisini qoʻygan boʻlar edi. Qiyoslang: *أَزَّتِي* *uzatti* – uzaytirdi (MK.113/3). Shuningdek, *Sālim* ismlar kitobidagi besh harfli soʻzlarda *-lig/-lik* qoʻshimchalarining oʻqilishiga oid 11 ta birikma qiyosiy-matniy tahlil qilindi.

j / č tovushlari arab yozuvida ج bilan ifodalangan. Koʻkturk va uygʻur yozuvlarida [č] maxsus belgiga ega, sof turkiy tovushdir. Gʻ.Abdurahmonov va A.Rustamovlarning taʼkidlashicha, qadimgi turkiy tilda [j] undoshi yoʻq⁴⁶. Q.Mahmudov [j] tovushini eski turkiy til manbalarida oʻzlashgan soʻzlar tarkibidagina uchrashini yozgan⁴⁷. Bundan, ج bilan yozilgan soʻzlarda koʻproq [č] faol boʻlganini tushunish mumkin. Q.Sodiqov S.Mutallibov [j] oʻqigan koʻpgina soʻzlarni [č] oʻqigan. H.Boltaboyev nashrida ilk nashrdagi bu yondashuv deyarli oʻzgarishsiz qolgan⁴⁸. I jildda 21 ta matniy tafovut aniqlandi va ishda koʻrsatildi.

w / f tovushlari qoʻlyozmada ف/ف bilan yozilgan. Hozirgi oʻzbek tilida ikkisi ham faol boʻlsa-da, til tarixi olimlari qadimgi turkiy tilda sirgʻaluvchi lab undoshi [f] yoʻqligini⁴⁹ oʻzlashgan soʻzlar tarkibidagina uchrashini taʼkidlashadi⁵⁰. T.Barovkova arabcha [f] portlovchi, Mahmud Koshgariy turk tilida uni zaif (sirgʻaluvchi) deb izohlagani uchun ف yozganida [f] ni emas, [w]ni nazarda tutganini⁵¹, J.Kelli va R.Denkoflar [f] tovushi arab-fors tilidan oʻzlashgan va onomatopik soʻzlarda uchraydi degan xulosalarni bergan (D-K.55). Q.Sodiqov uygʻur alifbosiga oid tadqiqotlari⁵² asosida matndagi ف harfining w oʻqilishi kerakligini uqtirgan va S.Mutallibov [f] oʻqigan barcha soʻzlardagi ف/ف tovushlarini lab-lab [w] bilan transkripsiyaga oʻgʻirgan. Biz nashrlarda 27 ta shu kabi soʻzlarni aniqlab, ilovaga kiritdik. Shuningdek, “*qaftan*” soʻzining etimologiyasini devon materiallari asosida aniqlashtirishga harakat qildik.

⁴⁴ Содиқов Қ. Махмуд Кошғарий келтирган уйғур алифбоси: ҳарф ва товуш муносабатлари // Turkologiya. 2021, – №3. – Б.13.

⁴⁵ Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Т., 2006. – Б. 56-60.

⁴⁶ Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т., 1982. – Б.8.;

⁴⁷ Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Т., 2006. – Б. 63.

⁴⁸ Jarangli va jarangsiz [ج] tovushi uchun S.Mutallibov j-ч, H.Boltaboyev j-ч, Q.Sodiqov j-č shaklini olgan.

⁴⁹ Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т.1982. – Б.8.

⁵⁰ Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Т., 2006. – Б. 60.

⁵¹ Боровкова Т.А. О губных согласных в Дивану лугат-ит-турк Махмуда Кашгари // Тюркологический сборник. – Москва.: 1966. – С.25

⁵² Содиқов Қ. Махмуд Кошғарий келтирган уйғур алифбоси: Ҳарф ва товуш муносабатлари // Turkologiya. – № 3., 2021. – Б. 4-15.

z / δ tovushlari qo‘lyozmada ikki harf (ز, ذ) bilan ifodalangan. Matnda ذ bilan yozilgan so‘zlar S.Mutallibov nashrida ustida nuqtasi bor [3] bilan, Q.Sodiqovda tishora [δ] bilan transkripsiyaga olingan. H.Boltaboyev nashrida esa o‘qilish jadvalida lotincha [z] ko‘rsatilgan. Biroq nashrda ذ bilan yozilgan so‘zlarning aksariyati [3] o‘qilgan. [3] aslida ز ning transkripsion belgisi sifatida ko‘rsatilgan. Xullas, nashrda ز va ذ bilan yozilgan so‘zlar ayrim o‘rinlarda farqlanmagan. Bu esa ham matniy, ham ma’naviy farqlarga sabab bo‘lgan: “*kiyimlarni o‘ftobda yoyib quritish; tarqalmoq; ichiga narsa qo‘ymoq, tiqmoq*” ma’nosida kelgan uch omonim so‘z ذ bilan يَدَلِشْدِي jazliuidi o‘qilgan. ز bilan yozilgan “*tugunni yechmoq*” ma’nosidagi يَزْلِشْدِي ham jazliuidi o‘qilgan. Shunda jÿmzak jazildï – “*tiqildi, ichiga narsa qo‘yildi*” (HB.III) birikmasi aks ma’noda “*bo‘g‘cha yoyildi*” bo‘lib o‘zgarishi mumkin.

n / ŋ III jildda S.Mutallibov va Q.Sodiqov [ŋ] o‘qigan o‘rinlarni ba’zan H.Boltaboyev [n] o‘qigan. Biroq arabcha matnda uchala nashrda ham nazal نك birikmasi yozilgan: قنكلى (MK.609/16)– қаңли (SM.III,389) – қанли (HB.III,251) – қаңли (QS.452) kabi. Shuningdek, Q.Sodiqov يگت قانگا كُرسدى yigit qanga kürsdi - yigit qonga to‘ldi, semirdi (468) birikmasidagi قانك so‘zini qanqa o‘qigan. Biroq matnda bu o‘rinda ن sukun olgan va qan so‘ziga jo‘nalish kelishigi qo‘shilgan (MK.626/13).

2) Undoshlarning yozilishi ham, o‘qilishi ham qo‘lyozmaga mos kelmaydi:

قَاغُون (MK.411/6) — tozaligi ketib, yungdek, paxtadek, lattadek bo‘lib qolgan qovun birikmasi nashrlarda: كِنزِگَاك قَاغُون — кінізгак қағун (SM.II,335; HB.II,193)- كِنزِگَاك قَاغُون kedizgäk qağun (QS.298) o‘qilgan. Yoki Dizrutin (MK.509/15) nomli shahar shu kungacha S.Mutallibov nashri orqali Дізрутин (SM.III,164; HB.III,101) hisoblangan. Bu kabi holatlar 6- ilovada ko‘rsatilgan.

3) **Matnda shaklan o‘xshash nuqtalari tushib qolgan yoki o‘chib ketgan undoshlarni o‘qish masalasi.** Qo‘lyozmaning 604/16 qatoridagi “havo” deb izohlangan so‘z نكك (transliteratsiyasi -nkk) shaklida yozilgan bo‘lib, birinchi harfning nuqtalari va harakatlari qo‘yilmagan. S.Mutallibov va H.Boltaboyev cözük, (SM.III,377; HB.III,243). Q.Sodiqov ي harfi bilan yeyäk (QS.447) o‘qigan. So‘z matnda takror kelmagan, shu bois “havo” ma’nosiga yaqin kelgan fe’li birikmalarni aniqladik. Bular quyidagilar: قُش تَنْدِي quş teñdi (MK.614/6); oq teñdi – er oqin teñütti (MK.616/14) – تَنْجُج teñüç (MK.610/17) So‘zning to‘g‘ri varianti teñük deb xulosa qildik va bizning taxminimiz o‘zbek nashrlari bilan mos kelmadi.

4) **Tovushlarning o‘zaro o‘rin almashishi.** Nashrlarning II, III jildida uchraydi: Qo‘lyozmaning 528/7- qatoridagi يُغرت so‘ziga ikkinchi zamma qo‘yilmagan va ikki nashrda jozypm o‘qilgan (SM.III,207; HB.III,132) Bu so‘z 361/4 da qaytarilgan va bunda ر harfi zamma olgan — يُغْرُتْ. Demak, ikki o‘rinda ham so‘zni yoğrut o‘qish maqsadga muvofiq. Q.Sodiqov qo‘lyozmadagi kabi yozgan. Bu kabi so‘zlardan 10 ta aniqladik va qo‘lyozmadagi holati bilan ishda ko‘rsatdik.

Nashrlarda turkiy she’r va maqollarning qiyosiy-matniy tahlili

Biz matndagi she’rlarni qiyosiy o‘rganishda o‘zbek turkshunosligida devonni ilk bor tadqiq etgan olim Abdurauf Fitratning “Eng eski turk adabiyoti namunalari”⁵³ majmuasidagi parchalar bilan chog‘ishtirdik.

⁵³ *Fitrat. Энг эски турк адабиёти намуналари. ЎзР ФАШИ, тошбосма, инв.№16507; keyingi o‘rinlarda (F.24) kabi sahifa raqami yozilgan holda qisqartirildi.*

Q.Sodiqov nashrining 199- sahifasida kelgan quyidagi she'rdagi bir so'zning yozilishi qo'lyozmaga mos kelmagani kuzatildi. Xususan, *Nāḥin tutar beklāyū, ōzi yemās...* misrasidagi *Nāḥin* so'zi qo'lyozmada نَکِن (MK.251/17) *nekin/negin* yozilgan. S.Mutallibov va H.Boltaboyev nashrlarida qo'lyozmaga mos o'qilgan: *Нэгин тутар бэклэјј өзи јэмäs* (SM.I,462; HB.I,331). Tarjimadagi matnda bu so'z "mol-dunyo" ma'nosida izohlanmoqda. Aslida ham bu so'zning asl ma'nosi "narsa, buyum"dir. Bu o'rinda, ehtimol, kotib yanglishgan, muallif esa qo'lyozmadagi noaniqlikni arab tilidagi talqinga ko'ra tiklagan. Baytning mazmuni (o'zi yemay molini baxillik qilib qattiq tutadi) *Nāḥin* so'zi bilan ko'proq moslashadi. Fitrat ham xuddi shunday fikrga kelgan va bu so'z – "ناکِن *nākin* ning to'g'risi نائک *nāḥ* bo'lishi kerak" ligini uqtirgan (F.99-100).

Shuningdek, ishda, *Јүкүнүб мәңä imlädi, Қочингар тэкä cәwıldi, Јай барубан әркүзи, Булмадiқ нэңка сәwинмәң Эндiк кiшi тiмiлсүн, Ајдум аңар сәwүк, Ўтпүк утун ағрiлају јүзгä бақар, Эрдәм тiла өгранiн болма күwаз* satrli she'rlar qiyosiy-matniy tahlil qilingan. Nashrlarning I jildiga kirgan 21 ta she'r tarkibida aniqlangan 23 ta matniy tafovutning tuzatilgan shakli va qo'lyozmadagi holati bilan ishda ko'rsatildi. II-III jilddagi shu kabi matniy, ma'naviy tafovutlar she'rlarning to'liq varianti bilan 7-ilovada ko'rsatildi.

Mahmud Koshg'ariy matnda keltirgan maqollar va hikmatli so'zlarning barchasi o'zbek tilidagi nashrlarga kiritilgan. Nashrlarda tafovutli kelgan 7 ta quyidagi maqollar qiyosiy-matniy tahlil qilinib, qo'lyozma bilan chog'ishtirildi va farqlarni yuzaga keltirgan omillar oydinlashtirildi: *Usuqmişqa saqiğ qamuğ suw körünür*(MK.104/16); *Taşiğ isrumasa, öpmiş kerak* (MK.92/1); *Eriñänä elik qari bözün/bözün üm tikämäs/tukämäs* (MK.71/6); "*Qadaş*" *temiş qaymadiq, "qadın" temiş qaymiş* (MK.203/9); *Sabanda sandiriş bolsa, örütkindä irtäs bolmas* (MK.203/2). *Tüzün birlä urus, utun birlä tiräşmä* (MK.203/2); *Puşmasar, boz quş tutar, ewmäsar, örün quş tutar* (MK.269/15).

XULOSA

1. "Devonu lug'ati-t-turk" qo'lyozmasini ko'chirgan kotibning mahorati yuqori bo'lib, tadqiqotchilar ochiqdagi matndagi noaniqliklarga beixtiyor yo'l qo'ygan. Matn ustida olib borilgan tahrir esa so'zning ikkinchi variantiga ishora qilgan hamda ayrim noaniqliklarni tuzatishni maqsad qilgan. Matn so'zboshisidagi mulohazalar kitob buyurtmachisining tilidan kotib qalami bilan yozilib, Mahmud Koshg'ariyning o'z qo'li bilan ko'chirgan nusxasiga ishora qilgan.

2. Abdurauf Fitrat birinchilardan bo'lib, matndagi turkiy she'rlarni o'zbek tilida nashrga tayyorlagan. Uning nashriga qo'lyozma emas, balki bosma nusxa asos bo'lgan. Olimning matnni o'zlashtirish mahoratining yuqoriligi shundaki, qo'lyozmani ko'rmasdan bosma nusxadagi ayrim xatoliklarni qo'lyozmadagi kabi tiklagan.

3. S.Mutallibovning o'zbek tilidagi nashri dunyo miqyosida ikkinchi bor to'liq nashrga tayyorlangan bo'lib, o'tgan asrda butun sobiq ittifoqda yagona tadqiqot manbasi bo'lib xizmat qilgan. S.Mutallibov qo'lyozma bo'lmagani uchun qayta tahrirlangan bosma nusxadan foydalanishga majbur bo'lgan va B.Atalayning turkcha

nashridagi yondashuvlariga ergashgani, B.Atalayning satrosti izohlarining aksariyati qo‘lyozmaga tayanilgani hisobidandir.

4. S.Mutallibovning nashrida qo‘lyozma sahifalari qo‘yilmagan va o‘tgan asrdagi siyosiy cheklovlar tufayli Qur‘on oyatlari va hadislar tarjima qilinmagan. Transkripsiya tizimida 40 ga yaqin belgilardan foydalanilgan bo‘lib, *Tarkan, o‘glaq* so‘zlarining talqini, *čumğuq, ilimğa* so‘zlarining o‘qilishidagi xatoliklar boshqa lingvistik tadqiqotlarda ham takrorlangan. E.Fozilovning ushbu nashrni xorijiy nashrlar bilan qiyoslagan ilmiy maqolasida S.Mutallibovning nashrida yo‘q deb ko‘rsatilgan *açyq, aryğ, artuqluq, arut, äp, äpmäk, ärdam, äräntüz* kabi so‘zlar aslida nashrda mavjuddir.

5. Hozirgacha matnning faksimile nusxasi besh marta tayyorlangani qo‘lyozma asosidagi yangi nashrlarni tayyorlash imkoniyatini kengaytirdi va turkologiyadagi yutuqlar yangi nashrlariga ehtiyoj tug‘dirdi. 2016-2017-yillarda S.Mutallibov nashri asosida to‘ldirilgan va qayta ishlangan ikki o‘zbekcha yangi nashr e‘lon qilindi.

6. Alibek Rustamov, Hamidulla Boltaboyev va Baxtiyor Isabekov tomonidan tayyorlangan nashrda Qur‘on oyatlari va hadislar tarjima qilingan, muqaddimadagi xatboshi tiklangan. Ayrim so‘zlar xorijiy ikki nashr va lug‘atlar bilan qiyoslanib, sahifa ostida qayd etilgan. Mualliflar talqin va so‘zning o‘qilishiga oid mulohazalarini yozib borganlar. Qo‘lyozma sahifalari qo‘yib borilishida o‘ndan ortiq sahifa raqami beixtiyoriy tushirib qoldirilgan (57, 59, 60, 61, 83, 104, 622, 633, 635, 637, 638). Ayrim o‘rinlarda so‘zlarning o‘qilishida birinchi tovushlar shu so‘zlarning izohi uchun keltirilgan jummalarda o‘zgargan va qo‘lyozmada kelish tartibi ham almashgan o‘rinlar kuzatildi. Transkripsiyaga o‘g‘irishda *ë, ə, j, z* belgilarining qo‘llanilishida noaniqliklar bor. To‘rtliklar va masnaviy shaklidagi parchalarning arab yozuvida berilishi I jild 179- sahifagacha S.Mutallibov nashridan aynan nusxalangan bo‘is kiritilgan o‘zgarishlar ushbu she‘rlarning arabcha matnida aks etmay qolgan.

7. Qosimjon Sodiqovning bir jildli yirik hajmli nashrida turkiy o‘rinlar qo‘lyozma bilan solishtirib chiqilgan. Matnning birinchi sahifasidagi so‘zboshi tarjima qilinib, nashrga kiritilgan; turkiy matn, barcha atoqli otlar, arab harflari, istilohlar lotin yozuvidagi qat‘iy transkripsiyaga o‘girilgan. Matnda ikki xil harakatlangan so‘zlarning har ikki varianti, qo‘lyozmada 61 o‘rinda kelgan كق ligaturasi bilan yakunlangan masdarlarning 51 tasi, matnda ikki o‘rinda xato yozilgan masdarning Koshg‘ariy keltirgan qoidaga binoan to‘g‘irlangan varianti nashrga kiritilgan. So‘zlarning kelishik va shaxs-son kategoriyalarini belgilashda Ko‘kturk bitiklarida qo‘llanilishi hisobga olingan. Orfografik me‘yorlarga qat‘iy amal qilingan. Qo‘shimcha yuklamalar, juft va takroriy so‘zlar ajratilgan. Nashrda she‘rlar va maqollar arab yozuvida ko‘rsatilmagan hamda qo‘lyozma sahifalari qo‘yib borilmagan.

8. O‘zbek tilidagi nashrlarda muqaddimaga oid 50, lug‘at qismga oid 600 ga yaqin tafovutlar qo‘lyozma bilan solishtirildi va farqlarning paydo bo‘lishiga ta‘sir etgan omillar ochib berildi. So‘z-maqolalari soni uch nashrda farqli ekanligi (7222, 6962, 7596 ta) ko‘p ma‘noli va shakldoshlarini alohida yoki bir maqola sonida berilishi va 6 ta maqola S.Mutallibov, 8 ta maqola H.Boltaboyev nashrlarida tushirib

qoldirilishi bilan bog‘liq (*yiklädi, yamladi, yimlädi, yašnädı, yelnädı, ölišdi näñ, ol anig birlä kerışdi, ol anig qulin kürätti*).

9. Matniy tafovutlarning eng ko‘lamlisi turkiy matnning o‘qilishi bilan bog‘liq bo‘lib, turkiy so‘zlar, unli va undosh tovushlarning orttirilishi, tushirilishi, almashinishi kabi guruhlarga ajratilib, tasnif qilindi, farqlarni yuzaga keltirgan omillar oydinlashtirildi.

10. Nashrlarda fe‘llar doirasidagi unli tovushlarning tushishi qo‘lyozmada qanday yozilgan bo‘lsa, shunday o‘qish yoki so‘zni sarlavhadagi vazn qolipiga moslashtirish uchun bir unlini tushirib o‘qish yondashuviga asoslangan, talqinga oid matniy tafovutlar tahlilida kotibning beixtiyor yanglishgani qo‘lyozmada turkiy matn va uning arabcha talqini zid kelishiga sabab bo‘lgan. Bu o‘rinda S.Mutallibov arabcha talqin asosida turkiy matni, Q.Sodiqov turkiy matn asosida talqinni o‘zgartirgan.

11. Turkiy she‘rlar tadqiqida Fitrat (qo‘lyozmani ko‘rmagan holda *neñin, eñar*) Q.Sodiqov (*neñin, başra qa qar*) va H.Boltaboyev (*eñar*) so‘zning asl shaklini tiklagan. Fitrat va S.Mutallibov nashri uchun bir manba tayanch bo‘lgan.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 UNDER
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ORIENTAL STUDIES**

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ORIENTAL STUDIES

SATTOROVA ZILOLA ISMOILOVNA

**UZBEK EDITIONS OF “DEVONU LUGATI-T-TURK” AND THEIR
COMPARATIVE-TEXTUAL RESEARCH**

10.00.10 – Textology and literary source studies

**DISSERTATION ABSTRACT
of the Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences**

Tashkent – 2024

The theme of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) was registered at the Higher Attestation Commission with number B2021.2.PhD/Fil1896.

The doctoral thesis has been carried out at the Tashkent State University of Oriental Studies.

The abstract of the dissertation has been posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of the Scientific Council (www.tsuos.uz) and Information-educational portal «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor: **Omonov Qudratulla Sharipovich**
Doctor of Philological Sciences, Professor

Official opponents: **Islomov Zohidjon Mahmudovich**
Doctor of Philological Sciences, Professor

Shodmonov Nafas Namozovich
Doctor of Philological Sciences, Professor

Leading organization: **Institute of Uzbek language, literature and folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan**

The defense of the dissertation will be held on «24» February 2024 at 10:00^{am} at the session of Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 at the Tashkent State University of Oriental Studies. (Address: 100047, Tashkent, Shakhrisabz Street, 16. Phone: (99871) 233-45-21; Fax: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz).

The doctoral dissertation is available at the Information-Resource Centre of the Tashkent State University of Oriental Studies (registered under № 29). (The address: 100060, Tashkent, Amir Temur Street, 20. Phone: (99871) 233-45-21.)

The abstract of the dissertation was distributed on «2» February 2024.
(Registry protocol No 29 of «2» February 2024).



A.M.Mannonov
Chairman of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philology, Professor

R.A.Alimukhamedov
Scientific Secretary of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philology, Associated Professor

M.M.Is'hoqov
Acting Chairman of the Scientific Seminar at the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Historical Sciences, Professor

INTRODUCTION (abstract of the PhD thesis)

Relevance and necessity of the dissertation topic. Mahmud Koshgari's "Dīwān Lughāt al-Turk" is a magnificent scientific and literary monument in the world of Turkology, and it is recognized as a common artistic heritage of all Turkic peoples because it was written with the aim of informing the entire Islamic world about Turkish languages, the culture of Turkic peoples, customs, lifestyles, and folklore. In Turkology, the weight of research on this work is wide, and the first of them was related to the history of the text and the preparation of the scientific-critical text of the work.

In the last century, scientific publications based on edited printed copies of the work were published in the world Turkology. The poems in "Dīwān Lughāt al-Turk" were first translated and interpreted in Uzbek by Abdurauf Fitrat in 1927 and prepared for publication. The first publication in the Uzbek language translated and interpreted by Solih Mutallibov (1960-1963) was the third in the world and the first in Asian countries, and served as the only source of research for the entire region for many years. The publication was recognized and described by world Turkologists, but it was not directly compared with the manuscript as an object of textual studies. Today, due to the fact that high-quality facsimile copies of the manuscript have been prepared, research based on the printed edition, especially in the first Uzbek language editions of the text, shows that there are certain differences with the manuscript.

Attention to the development of science in modernizing Uzbekistan is rising to a new level. In particular, in-depth study of textual studies and literary source studies based on manuscript sources is gaining special importance year by year. In the course of such work, in order to achieve new results in Uzbek textology, there was a need for new manuscript-based editions of the "Dīwān Lughāt al-Turk" text. Today, the Uzbek edition of the work has been re-edited twice and prepared for publication in 2016 by Alibek Rustamov, Hamidulla Boltaboev, Bakhtiyor Isabekov, and in 2017 by Qosimjon Sodiqov. Textual research is the basis for subsequent scientific works on linguistics, literary studies, and historiography, and ensures the quality and reliability of research. Therefore, comparative-textual research of these publications and determining that the features of the original text have been revealed is the relevance of the topic.

The dissertation research serves to a certain extent in the implementation of the tasks defined in the decree of PD-60¹ of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 "On the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026", PD-126² February 10, 2022 "Additional measures to improve the system of preservation and research of ancient written sources" and other regulatory legal documents related to this activity.

¹ <https://lex.uz/docs/5841063>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 24-maydagi PQ-2995 son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.// Xalq so'zi, 2017-yil, 25-may.

Dependence of the research on the main priorities of the development of science and technology of the republic. This study has been carried out within the framework of the priority direction of the development of science and technology of the Republic I. “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state”.

The degree of study of the problem. The manuscript of “Dīwān Lughāt al-Turk” has been widely studied worldwide since the day it was discovered and delivered to the scientific community. Most of the studies on the history of the text and its textological features were researched by its translators and publishers and were translated into German, Turkish, Uzbek, English, Uyghur and Kazakh languages in the 20th century³. These studies were accelerated even after 2000, reworked and new editions were published in Persian, Chinese, Azerbaijani, Russian, Kyrgyz, Turkish and Uzbek languages⁴. The characteristics of the Uzbek edition of S. Mutallibov, and his approaches have been partially studied in the introduction to these foreign editions.

A. Kononov, I. Stebleva, A. Rustamov, E. Fozilov, Q. Sodiqov, S. Rustamiy, E. Umarov, J. Khudoyberdiyev, Sh. Sultanaliyev, U. Omurbekova compared with other foreign publications in their research and pointed out some achievements and shortcomings⁵.

³ Brockelmann C. *Mitteltürkischer Wortschatz nach Mahmud al-Kāshgari's Divan Lughat at-Turk*. Bibliotheca Orientalis Hungarica. – Budapest-Leipzig, – No. 1, 1928.; *Atalay B. Divanü Lûgat-it Türk Tercümesi*. 3 cilt. – С. 1,2,3. – Ankara: Alâeddin Kırâl Basımevi, 1939, 1940, 1941; Туркий сўзлар девони (Девони луғотит турк). Таржимон ва нашрга тайёрловчи: *С.Муталлибов*. 3 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси, 1960, 1961, 1963; *Mahmud al-Kashgari*. Compendium of the Turkic Dialects (Diwan Lugat at-Turk), edited and translated with introduction and indices by Robert Dankoff, in collaboration with James Kelly. Cambridge, Mass. [In: Sources of Oriental Languages and Literatures, ed. Sinasi Tekin.] – Part I: 1982 – P. xi + 416. Part II: 1984 (Pp. iii + 381). Part III: 1985 (Pp. 337 + microfile); *Kashgari Maxmut*. Turkiy tillar divani – Divanü lûgat-it-türk. – Urumchi, 1981. – 687 b. 1983.II. – 535 b., 1984.III. – 612 b.; Қашқари Махмут. Түрік сөздігі. 3-том/Аударған А. Егеубай. – Алматы. 1997.

⁴ *Махмуд бин Ал Хусайн АлКашгарий*. Девону луғати-т-турк / Др.Хусайн Мухаммазода Сиддик. Ахтар нашриёти, Табриз-Эрон: Хижрий 1383.; Tu Tszüe Yuy Datsidyuan [“Devonu luğot-it-turk”] – Beyin: Millətlər nəşriyati, 2002. – I cild. – 554 b., II cild – 378 b., III cild – 442 b.; *Kāshgari Mahmud*. Divanü lûgat-it-türk. Tərcümə edən və nəşrə hazırlayan Ramiz Əskər. – Bakı: Ozan, 2006, – I cild, – 512 s.; – II cild, – 400 s.; – III cild, – 400 s.; IV cild (indeks), – 752 s.; *Махмуд ал-Кашгарий*. Диван Луғат ат-Турк. Перевод, предисловие и комментарии З.-А.М.Аузэвой. Индексы составлены Р.Эрмерсом. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005; *Махмуд ал-Кашгарий*. Диван лугат ат-турк (Свод тюркских слов) : в 3 т. / Пер. с араб. А.Р. Рустамова под ред. И.В.Кормушина, прим. И.В. Кормушина, Е.А. Поцелуевского, А.Р.Рустамова; – Москва: Вост. лит., 2010-том 1. – 461 с.; Махмуд Кашгари. Словарь тюркских языков / перевод на кырг. Т. Токоев, К. Кошмоков. – Бишкек, 2011. Т. I. – 906 б, II. 591б, III – 678 б.; *Kāshgarlı Mahmud*. Divānu Lugāti`-t-Türk (Giriş – Metin – Çeviri – Notlar – Dizin). Hazırlayanlar: Ahmet B.Ercilasun, Ziyat Akkoynlu. – Ankara: TDK Yayınları. – 1120 s.; *Махмуд Кошгарий*. Девону луғоти-т-турк. 1-3 жилд. (Нашрга тайёрловчилар: А.Рустамов, Ҳ. Болтабоев, Б.Исабеков) – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2016.; *Махмуд Кошгарий*. “Девону луғати-т- турк”. Нашрга тайёрловчи: Содиқов Қ. – Тошкент: Фафур Ғуллом, 2007. – 482 б.

